takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, umumiy temir yo‘l uchastkalarinig transport jarayonlari texnologiyasini samarali tashkil etishda yuk poyezdlari harakat tezliklari (YuPHT)ga ta‘sir ko‘rsatuvchi shartli-o‘zgarimas (harakat tezliklari ifodalarining asosiy parametrlari) va tasodifiy omillarni o‘z vaqtida aniqlash, tahlil qilish, baholash va hisobga olish hamda yo‘l davomida poyezdlar bilan bajariladigan amallarga sarflanadigan vaqtlarni me‘yorlash usullarini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Poyezdlar harakatini tizimli tashkil etish va YuPHTni o‘rnatilgan texnik me‘yorlaridan samarali foydalanish temir yo‘l transporti asosiy ish ko‘rsatkichlarining bajarilish darajasini oshirish imkonini beradi [1-3]. Jumladan, YuPHTni o‘rnatilgan texnik me‘yorlarining amalda bajarilishini tahlil qilish yuklarni tashish ko‘rsatkichlarini texnik-iqtisodiy baholash va harakat tezliklarini me‘yorlash usullarini takomillashtirish imkoniyatlarini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Temir yo‘l transportining texnik va texnologik jihatdan takomillashtirilishi doimiy ravishda amalda o‘rnatilgan me‘yoriy harakat tezliklarining bajarilish ko‘rsatkichlarini o‘zgarishiga olib keladi [4-5]. Poyezdlar harakatida texnik va texnologik ish ko‘rsatkichlarining xilma-xilligi poyezdlarning harakat tezliklariga tizimli ravishda ta‘sir ko‘rsatadi. YuPHTning me‘yorlarini bajarilishi transport jarayonlarining sifatini belgilaydigan tarmoq ish rejimini tartibga solishning eng muhim parametrlaridan biridir. Yuk va yo‘lovchi poyezdlarining harakat tezligini oshirish temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarining o‘tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, yuklarni yetkazib berishni tezlashtirish, lokomotivlardan foydalanish va lokomotiv brigadalari ish samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

YuPHTning o‘rnatilgan me‘yorlarini tahlil qilish, baholash va ularga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va tezliklar me‘yorlarini o‘rnatishda temir yo‘l yo‘nalishlari infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab olimlar va mutaxassislar ilmiy izlanishlar olib borgan [5-7].

YuPHTni me‘yorlashda temir yo‘l yo‘nalishlari infratuzilmasining texnik holati harakat tezliklarini turli parametrlar bo‘yicha hisoblash va tasniflash asosida aniqlash usullari ishlab chiqilgan. Poyezdlar tuzish rejasini boshqarishda vagonlar oqimi ta‘sirini aniqlash bo‘yicha poyezdlarni peregonlarda yurish vaqti, texnik stansiyalarda turishi va texnik xizmat ko‘rsatish vaqt me‘yorlarini hisobga olgan holda takomillashtirish usullari asosida yuklarni yetkazish tezliklari aniqlangan.

Natijalar va muhokama. Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarining turli ko‘rsatkichlar asosida poyezdlar harakat tezliklarini oshirish imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Jumladan, yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdlar tomonidan yuk poyezdlarini siqib chiqarish koeffitsientini aniqlashda poyezdlarga texnik stansiyalarda texnik xizmat ko‘rsatish, texnik xizmat ko‘rsatishsiz o‘tkazish va peregonlar bo‘yicha yurish vaqtlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan usullari mavjud. Poyezdlar yo‘nalishlari bo‘yicha harakat tezliklariga rahbar nishabliklarining ta‘sirini aniqlash usullari va ularni optimallashtirishning matematik modellari asosida yuk poyezdlari harakat tezliklarining o‘rnatilgan texnik me‘yorlarini aniqlashda foydalanish mumkin.

Hozirgi kunda temir yo‘l transportida YuPHTni me‘yorlashda analitik, grafik, jadval, imitatsion modellashtirish kabi usullardan foydalaniladi. Jumladan, YuPHT an‘naviy analitik usullar yordamida quyidagi (1)÷(5) ifodalar orqali aniqlanadi [1-3, 10]:

yurish tezligi – poyezdlarni tezlanish va sekinlanish vaqtini hisobga olmagan holda, uchstka bo‘yicha peregonlarda “aniq” harakatlanish vaqtidagi tezlik

$$g_{yur} = \frac{L_{uch}}{t_{yur}}, km/soat, \quad (1)$$

texnik tezlik – poyezdlarni tezlanish va sekinlanish vaqtini hisobga olgan holda, oraliq stansiyalarda to‘xtash vaqtlarini hisobga olmagan holda poyezdlarni peregonlar bo‘yicha harakatlanish tezligi:

$$g_{tex} = \frac{L_{uch}}{t_{yur} + \sum t_{t/s}}, km/soat, \quad (2)$$

uchstka tezligi – poyezdlarni tezlanish, sekinlanish va oraliq stansiyalarda to‘xtash vaqtlarini hisobga olgan holda uchastkalar bo‘yicha harakatlanish tezligi:

$$g_{uch} = \frac{L_{uch}}{t_{yur} + \sum t_{t/s} + \sum t_{or.st}}, km/soat, \quad (3)$$

marshrut tezligi – poyezdlarni tezlanish, sekinlanish va temir yo‘l yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlanish vaqtlarini hisobga olgan holda tezlik:

$$g_m = \frac{L_{yo'n}}{t_{yo'n}^{har} + \sum T_{tex.o'r} + \sum t_{t/s}}, km/soat, \quad (4)$$

yuklarni yetkazib berish tezligi – temir yo‘l orqali yuklarni qabul qilingan vaqtdan boshlab qabul qiluvchiga yetkazib berish vaqtlarini hisobga olgan holda yuklarni harakatidagi tezligi:

$$g_{yuk} = \frac{L_{yo'n}}{\sum T_{yuk}}, km/soat. \quad (5)$$

bu yerda L_{uch} – temir yo‘l uchastkalarining uzunligi, km;

$L_{yo'n}$ – muayyan yo‘nalishning uzunligi, km;

t_{yur} – poyezdlarning yo‘l davomida yurish vaqti, soat;


$\sum t_{or.ort}$ – poyezdlarning oraliq stansiyalarda o‘rtacha turish vaqti, soat;

$\sum t_{t/s}$ – poyezdlarning tezlashish va sekinlashish uchun sarflangan vaqtlari, soat;

$\sum T_m$ – poyezdlarning belgilangan marshrut bo‘yicha umumiy sarflangan vaqti, soat;

$\sum T_{yuk}$ – yuklarni yetkazib berish uchun umumiy sarflangan vaqt, soat.

Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarida YuPHTning me‘yorlarini barcha texnik va texnologik parametrlarni hisobga olgan holda o‘rnatish maqsadga muvofiq. Biroq, amalda 1-rasmda keltirilgan temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarining sxematik ko‘rinishi bo‘yicha YuPHT texnik me‘yorlarini o‘rnatishda faqat (1)÷(5) ifodalar parametrlari inobatga olinadi (1-jadval).



1-rasm.

Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarining sxematik ko‘rinishi

1-jadval

Yuk poyezdlari harakat tezliklarining o‘rnatilgan texnik me‘yorlarini aniqlashdagi parametrlar

YuPHTning nomlari	YuPHTni me‘yorlashda hisobga olinadigan parametrlar						
	t_{tez}	t_{sek}	t_{yur}	$t_{or.st}$	$t_{tex.st}$	L_{uch}	$L_{yo'n}$
Yurish							
Texnik							
Uchastka							
Marshrut							
Yuklarni yetkazib berish							

Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarida YuPHTning o‘rnatilgan texnik me‘yorlarini belgilash asosan peregonlar texnik parametrlari, yo‘lovchi poyezdlari soni va ularni, jumladan yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poyezdlarni stansiyalarda kutib turish vaqtlari, texnik va oraliq stansiyalarda poyezdlar bilan bajariladigan texnologik amallarga sarflanadigan vaqtlarga bog‘liq. YuPHTning o‘rnatilgan texnik me‘yorlarini aniqlash bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay turli xil parametrlardan foydalanilgan [1, 2, 10]. Bunda asosan peregon va stansiyalar texnik parametrlari asos qilib olingan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan YuPHTdan (3)- va (4)-ifodalari, ya‘ni uchastka va marshrut tezliklari muhim texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ushbu tezliklar poyezdlarni stansiyalarda texnik ko‘rikdan o‘tkazish, peregonlarda poyezdlarni harakatlanishining o‘rtacha yurish tezligi, yuk poyezdlarini stansiyalarda turib qolish vaqtlari va lokomotiv brigadalarining almashishlari vaqt me‘yorlarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ko‘p jihatdan vagonlar aylanmasi, vagonlarni o‘rtacha bosib o‘tish masofasi, peregon va stansiyalarda samarasiz vaqt yo‘qotilishlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarida poyezdlarning harakatlanishini texnologik jarayonlar me‘yorlari bo‘yicha samarali tashkil etish YuPHTning o‘rnatilgan me‘yoriy qiymatlarini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://studbooks.net/2453840/tehnika/tehnologiya_obrabotki_poezdov_sost_avov_stantsii
2. <https://www.aar.org/data-center/rail-traffic-data/>
3. Сардор , А. ў. А., Дилмурод , Б. Б., & Мусаев, . М. Ю. (2022). Юк поездлари ҳаракат тезликларининг ўрнатилган техник меъёрлари бажарилиши таҳлили . *Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук*, 2(5), 51–58. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/EJMTCS/article/view/1822>
4. Abdukodirov , S., Daminov, S., & Shomurodov, S. (2023). Information supply and regulatory framework for the organization of wagon flows on sections. *scholar*, 1(8), 19–26. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2687>
5. Abdukodirov S., Butunov D., Ahmedova M. The influence of the causes of freight train delays on the speeds of trains at railway stations // *Universum: технические науки : электрон. научн. журн.* 2022. 9(102). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14222> (дата обращения: 27.04.2023).
6. Зиёда , М. ., & Диёр , Б. . (2022). Исследования по улучшению современной транспортной системы в процессе доставки грузов. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, 3(1), 15–24. извлечено от <http://transportjournals.com/index.php/InnoTrans/article/view/11>
7. Кобулов J., & Баротов J. (2022). Совершенствование технологии обслуживания клиентов в железнодорожном транспорте. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, 1(1-2), 41–46.
8. Жамол , Ш. ., & Мирали , Д. . (2022). Сравнение технико-экономических показателей тросовых и цепных тросов, применяемых при креплении грузов, размещаемых в открытой подвижной составе. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, 3(1), 6–14. извлечено от <https://transportjournals.com/index.php/InnoTrans/article/view/10>
9. Илесалиев, Д. (2022). Методика определения запасов зерна и ёмкости линейного элеватора. *Железнодорожный транспорт: актуальные вопросы и инновации*, 1(1-2), 47–53. извлечено от <http://transportjournals.com/index.php/InnoTrans/article/view/8>
10. <https://f-husainov.livejournal.com/tag/%D0%A0%D0%96%D0%94>

QORAKO‘L QO‘YLARINING QON TARKIBIDAGI BIOLOGIK FAOL MODDALAR VA KO‘PAYISH FIZALOGIYASI BILAN BOG‘LIQLIGI

Aminova Shoira Furqat qizi, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali 2-bosqich magistrant.*

Xolbutayev Ilyos Rustam o‘g‘li, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali 2-bosqich magistrant.*

Yangiboyev Abdumalik Eshmurodovich, *Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti Toshkent filiali, katta o‘qituvchi*

Annotatsiya: *Tadqiqot natijalari tahlillariga ko‘ra qon tarkibidagi biologik faol moddalarning sur rangbaranglikdagi qorako‘l qo‘ylarning biologik xususiyatlariga ta‘siri o‘rganilganda organizmda biologik faol moddalar nisbatan ko‘p hayvonlarning hayotchanligi va qayta urchish intensivligi yuqori darajada ekanligi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar: ferment, jinsiy faollik, oqsil, uglevodlar, intensivlik, korrelyatsiya, albumin, globulin, leykotsit, eritrotsit, gemoglobin

Annotation: *According to the analysis of the results of the research, when studying the effect of biologically active substances in the blood on the biological characteristics of black-colored black sheep, it was observed that the vitality of animals with a relatively large number of biologically active substances in the body and the intensity of reproduction is at a high level.*

Keywords: *enzyme, sexual activity, protein, carbohydrates, intensity, correlation, albumin, globulin, leukocyte, erythrocyte, hemoglobin.*

KIRISH. Organizmda kaliy kationlari osmatik bosimni mutadillashtiradi, ishqor, kislota tengligini va moddalar almashinish, hazmlanish jarayonlarida faol ishtirok etadi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, hayvonlarning jinsiy faollik davrlarida qon tarkibidagi kaliy miqdorining sezilarli darajada o‘zgaruvchanlikka ega bo‘lishi aniqlangan. Olib borilgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako‘l qo‘ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog‘liqlik belgilari kuzatilgan.

Organizmada sodir bo‘ladigan barcha jarayonlarda kaliy kationlari ishtirok etadi. Ular qonning osmotik bosimini mo‘tadillashtiradi, kislotaishqor tengligini, nafas

olish va ovqat hazm qilish va boshqa jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Kaliyning o'ziga xos xususiyati shundaki, u radiktiv xususiyatga ega, yurak muskullarining faolliligini ta'minlaydi, yurak urish ritmini boshqaradi, ichki organlar qon tomirlarni kengaytiradi. Qon plazmasidagi kaliy miqdorining kamayishi natijasida yurak urish faoliyati buziladi, uglevodlardan foydalanish buziladi, oqsil sintezi susayadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Uglevod almashinuvida kaliyning ahamiyati juda katta, bundan tashqari, shu narsa aniqlanganki, agarda kaliy bilan organizm to'liq ta'minlanmasa, oqsil molekulalarining RNK dan chiqishi qiyinlashadi. Organizmda kaliy miqdorining 2 miqdorda bo'lishi aniqlanganligi sababli (yuqori va past darajada) ularning turli biologik ahamiyatlari aniqlangan; kaliy miqdori ko'p bo'lgan qo'ylar suvni kam iste'mol qilishlari va issiqlikka chidamli bo'lishi bilan kaliy miqdori kam bo'lgan hayvonlardan farq qiladi. Ko'pchilik ilmiy tadqiqotchilar ma'lumotiga ko'ra kaliy miqdori bilan qo'ylar serpushtligi orasida uzviy korrelyatsion bog'liqlik mavjud. Aripov U.X., Valiev R.G. larning ta'kidlashicha, turli zavod tipiga mansub qorako'l qo'ylari, agarda ular turlicha iqlim sharoitlarida urchitilayotgan bo'lsa, qon tarkibidagi kaliy miqdori bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bu esa ularning tashqi muhit sharoitiga moslashishidan dalolat beradi. Qonda kaliy miqdorini qorako'l qo'ylarning kuyga kelish intensivligi bilan bog'liqligi ularning qayta urchish xususiyatlariga bog'liq. Bunda ularning ushbu xususiyatlariga ta'sir etuvchi omillarini aniqlash muhim bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Qorako'l qo'ylarining qayta urchish xususiyatlarini biz tajribalarimizda ularning qochirish mavsumida kuyga kelish intensivligiga qarab aniqladik. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qon tarkibidagi kaliy miqdori turlicha bo'lgan hayvonlar o'zlarining biologik ko'rsatkichlari bo'yicha, ya'ni kuyga kelish intensivligi bo'yicha bir-biridan farq qilishadi. Qoni tarkibida kaliy miqdori ko'p hayvonlar kuyga ancha ertaroq kelishadi va ularni urug'lantirish odatda bir jinsiy siklning o'zidayoq yakunlanadi. Bunday holat, seleksionerlarga qochirish mavsumini boshqarish imkonini tug'dirib, qon tarkibida kaliy miqdori ko'p hayvonlar qochirish mavsumini erta va qisqa muddatlarda tugatish imkonini beruvchi hayvon guruhlarini yaratish potensial manbai hisoblanadi. Bu yerda, qon tarkibida kaliy miqdori turlicha bo'lgan ona qo'ylarning urug'lanish darajalarini o'rganish katta qiziqish uyg'otgan. Tajribalar natijasi shuni ko'rsatdiki, qon tarkibida kaliy miqdori turlicha bo'lgan sovliqlarning urug'lanish ko'rsatkichlari turlicha bo'ldi. Ya'ni, plyus variantidagi sovliqlarning urug'lanish darajasi o'rta variantga nisbatan 12,2 % ga, minus variantidan esa 14,5 %

ga yuqori ekanligi aniqlangan. Qon tarkibidagi kaliy miqdori ma'lum darajada qorako'l qo'ylarining qayta urchish funksiyalariga ta'sir o'tkazadi. Podaning takrorlanishi uchun asos qorako'l qo'ylari sonining ko'payishi, qayta o'rchish xususiyatlari va tashqi muhit omillariga bog'liq.

Tadqiqot natijalariga ko'ra qo'ylarning qayta o'rchish xususiyatlari asosan qochirim kompaniyasi davrida qondagi kaliy konsentratsiya miqdoriga qarab taqqoslash usullarida aniqladik. Kaliy miqdoriga qarab qorako'l qo'ylarini urug'lanish intensivligi U.X. Aripov, R.G. Valiev, F. Badalbaevalar tadqiqotlarida shuvoq – efemerli cho'lda urchitilayotgan hayvonlar qoni tarkibidagi kaliy miqdori tog' oldi yarim cho'l mintaqasida urchitilayotgan qo'ylarnikiga nisbatan ko'proq bo'lishi aniqlangan. Ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan aniqlanganki, turli hayvonlarning jinsiy faollik davrlarida qon tarkibidagi kaliy miqdorining sezilarli darajada o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi (yirik shoxli hayvonlarda) aniqlangan Biz olib borgan tadqiqotlarda qon tarkibidagi kaliy miqdorining qorako'l qo'ylari qayta urchish xususiyatlari bilan bog'liqlik darajasi o'rganildi. Tadqiqot manbalari sifatida yoshi va teri mahsuldorligi bo'yicha bir xil bo'lgan toza zotli qorako'l qo'ylari olindi. Qon tarkibidagi kaliy miqdorini belgilovchi kriteriy sifatida hayvonlar uch alohida guruhlariga ajratildi: "minus" varianti - kaliy miqdori 730 mkg/ml. gacha, "o'rta" variant 730 mkg/ml.dan – 850 mkg/ml.gacha, + "plyus" varianti - kaliy miqdori 850 mkg /ml dan ko'p.

Qon tarkibidagi biologik ko'rsatkichlardan kaliy miqdori har xil miqdordagi qo'ylardan kuyga kelish intensivligi ahamiyatli farq qiladi. Kaliy miqdori ko'p qo'ylar ertaroq kuyga kelishi va ularni urug'lantirish diyarli bir jinsiy siklda amalga oshadi. Bunday holatlar seleksionerlar o'rtasida qochirim mavsumini yuqori darajada o'tkazishga imkon beradi. Kaliy miqdori yuqori darajada bo'lgan qorako'l qo'ylari qochirish mavsumi qisqa muddatlarda amalga oshiriladi

Organizmida kaliy moddalar almashinuvi, osmatik bosimning miyorlashishi, organizmdagi suyuqliklarning muhit ko'rsatkichlari, fermentlar faolligini oshirishda, organizmda nerv tolalarining qo'zg'alishida muhim vazifalarni bajaradi. Tajribalar tahlillariga asoslanib qorako'l qo'ylarining qoni tarkibidagi bioximiyaviy va gemotologik tekshirishlar asosida biomahsuldorlik xususiyatlari aniqlandi. Organizmda kaliy miqdorlariga qarab umumiy oqsil miqdorlari taqqoslanganda plyus variant qo'ylarda yuqori darajada ekanligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki organizmdagi kaliy miqdori umuiy oqsil miqdorlari bilan o'z aro bog'liqligi aniqlandi.

XULOSA

Eritrotsitlarning miqdoriy ko'rsatkichlari plyus variant qo'ylarning qoni tarkibida qisman yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi. Albumin, globulin, leykotsitlar va gemoglobinlar o'rtasida diyarli o'zgarishlar yo'qligi aniqlandi. Mahsuldor hayvonlarni seleksion tizimlarini yaratishda organizmning fiziologik, bioximik va gemotologik holatlarni hisobga olgan holda seleksiya ishlari o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Xulosa qilib shuni takidlash lozimki qorako'l qo'ylari qoni tarkibidagi biologik faol moddalarning albumin, globulin, leykotsitlar va gemoglobinlar miqdori mahsuldorlik belgilari bilan bog'liqliklar borligi kuzatilmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Boltaev A., Mamatov B., Nazarova M. Qorako'l qo'ylarxususiyatlarining o'zaro bog'liqligi.//«Cho'l-yaylov chorvachiligi va ozuqa yetishtirish muammolari» QChEITning 85 yilligiga bag'ishlangan halqaro il.-amal. konf. materiallari. Samarqand. 2015. 222-225.
2. Gaziev A. Qorako'l zotining irsiy salohiyatidan unumli foydalanish. //«Cho'lyaylov chorvachiligining ekologik asoslangan texnologiyalari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, 2009, 53-58 b.

TARBIYA MAZMUNINING METODOLOGIK ASOSI

Xonimova Lobar Xolmamat qizi Nizomiy nomidagi

Toshkent davlat pedagogika universiteti

talabasi

Annotasiya. *Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakillantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayondir. Bolaning yetuk shaxs bo'lib rivojlanishida tarbiyaning roli nihoyatda katta. Maktabgacha ta'lim tarbiya yoshidagi bolalarda jismoniy, ekologik, aqliy, axloqiy, huquqiy, estetik, iqtisodiy, ijtimoiy, mehnat tarbiyalarni shakillantirish ilk yosh davrlaridan boshlanadi. Ushbu maqolada bolaga tarbiya berish mazmun mohiyatlari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: Tarbiya, tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, iqtisodiy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, ekologik tarbiya, tarbiyalanganlik.

Annotation. *Education is a practical pedagogical process aimed at forming certain physical, mental, moral and spiritual qualities in a person. The role of education in the development of a child as a mature person is extremely large. The formation of physical, ecological, intellectual, moral, legal, aesthetic, economic, social and labor education in children of preschool education age begins from the early years. This article describes the essence of child rearing.*

Key words: *Education, theory of education, physical education, mental education, moral education, legal education, aesthetic education, labor education, economic education, social education, ecological education, upbringing.*

KIRISH. Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. Kattalar turmush tarsi mobaynida orttirgan tajribalarini kelsusi avlodga meros qoldiradilar, avlodlar esa o'z faoliyati davonida duch kelgan muammolar va ularning yechimlarini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolagan bilimlarni takomillashtirib, o'zidan keying avlodga meros qoldiradilar. Kishilik jamiyati paydo bo'lishi bilan tarbiya vujudga kelgan. Shaxs jamiyatdan tashqarida kamol topa olmaydi, jamiyatdan tashqarida tarbiya ham bo'lishi mumkin emas.

ASOSIY QISM. Tarbiya – ijtimoiy hodisa bo‘lib jamiyat hayoti, uning to‘xtovsiz taraqqiy etib borishi tarbiyasiz bo‘lmaydi. Tarbiya insonning insonligini taminlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir[1].

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib tarbiya jarayoni mazmuni, shakl metodi, vosita va usullari uni tashlik etish muammolarini o‘rganadi. Tarbiya muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish uning ong xulq atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir deyish mumkin.

Xalqimizda bejizga, “Yoshlikda olingan ilm toshga o‘yilgan naqsh kabidir” – deyilmagan. Insonga yoshlikda berilgan bilm va tarbiya hayoti davomida orttiradigan tajribalariga poydevor vazifasini bajaradi. Olimlar fikriga ko‘ra bola hayoti mobaynida o‘rganadigan ta‘lim va tarbiyaning 70 foiz qismini 7 yoshga qadar o‘zlashtirar ekan. Demak, barkamol shaxs bo‘lib yetishishda maktabgacha ta‘lim va tarbiya tashkilotlarining o‘rni benihoya kattadir.

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va ta‘lim, tarbiya kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bola shaxsining rivojlanishida eng muhimi bu tarbiyadir. Irsiyat orqali bolaga ota onadagi ijobiy xislatlar bilan birga salbiy xislatlar ham o‘tadi. Muhit yaxshi yoki yomonligiga qarab insondagi fe‘l - atvor ham o‘zgarib boradi. Faqat yoshlikda yaxshi singdirilga tarbiyagina irsiyat va muhitdagi salbiy oqibatlarning ta‘sir etish ko‘lamini oldini olishi mumkin. Yaxshi va yomon tushunchalarini chuqur anglagan holda tarbiyalangan bola yomon muhit ta‘siriga tushsa ham o‘z tarbiyalanganlik darajasidan chetga chiqmaydi. Tarbiya ta‘sirida muhit ta‘siri bera olmagan fazilatlar o‘zlashtiriladi, ya‘ni bilim, ma‘lumotlar egallanadi. Tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazishi mumkin. Masalan, ko‘zi ojizlar, zaboni yo‘qlar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi[2]. Rus olimi I.P. Pavlovning ta‘limotiga ko‘ra bola bir qator tug‘ma xususiyat va instinktlarga ega holda tug‘iladi. Ammo, bunday reflekslar hayvonda ham mavjud. Inson bolasi biologik emas, ijtimoiy mavjudod sifatida rivojlanadi. Boladagi layoqat to‘g‘ri tarbiyalansa u kelajakda yetuk qobiliyat ko‘rinishida ro‘yobga chiqishi va rivojlanishga ta‘sir etadigan potensial imkoniyatlarga aylanishi mumkin. Aks holda bu layoqat o‘z holicha “mudroq” holda qolib ketishi mumkin. I.P.Pavlov tug‘ma layoqatni faqatgina to‘g‘ri tarbiya orqali rivojlantirish mumkinligini aytib o‘tgan[3].

Bola ilk tarbiyani oilada oladi shu bois „Qush uyasida ko‘eganini qiladi” naqli bejiz aytilmagan. Kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish, salom berish, mehmon kutish odobi, ovqatlanish odobi kabi tushunchalar ilk bor oilada shakillanadi.

Jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblangan oilada muhit yomon bo'lsa, bu davlat va millat hayotining qoloq bo'g'ini shakillanishiga zamin bo'ladi.

Bola shaxsi rivojlanishida bir qancha tarbiya turlari kompleks holda ta'sir ko'rsatadi. Ilk yosh davrlaridanoq singdirib borilishi zarur bo'lgan tarbiya turlariga quyidagilar kiradi;

- Jismoniy tarbiya
- Aqliy tarbiya
- Axloqiy tarbiya
- Mehnat tarbiya
- Estetik tarbiya
- Ekologik tarbiya
- Huquqiy tarbiya
- Iqtisodiy tarbiya
- Ijtimoiy tarbiya

Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy bolaga tarbiya berishda birinchi navbatda sog'lom bo'lishiga e'tibor qilish kerakligini, ya'ni jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish kerakligini uqtiradi. Abdulla Avloniyning fikriga ko'ra: "O'qimoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli kasalsiz jasad kerak", zero ,, jon ila ruh bir choponning o'ng ila ters yengi kavidur" [5\ Jismonan sog'lom, anatomik, fiziologik, nevrofiziologik jihatdan hech qanday nuqsoni bo'lmagan, sog'lom bolada o'qib o'rganish optimal darajada bo'ladi. Bu xususida xalqimizda,, sog' tanda sog'lom aqil" hikmati keng ma'noda qo'llanadi.

Bola o'sib ulg'aygani sari bilish ko'lami ham oshib boradi. Shu bilan bir qatorda undagi aqliy sifatlar ham o'sib boradi. Bolada bilim ko'nikma, salohiyat, tajriba kabi sifatlarning oshib borishi munosabati bilan bolaning aqliy kamoloti ham miqdor va sifat jihatdan takomillashib boradi.

Huquqiy tarbiya – ijtimoiy ong shakillaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichda davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlarning paydo bo'lishi jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy – huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi. Kichik yoshdagi bolalarda huquqiy ongni shakillantirish maqsadida 2016 – yil "Zorblar" multiplakation filmi yaratildi. Ushbu film 6 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan

bo‘lib, huquqiy ongini shakillantirish va huquqiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan.

Axloqiy tarbiya tushunchasi hech qayerda qat‘iy belgilab qo‘yilmagan ijtimoiy qonundir. Axloqiy tarbiya normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo‘lib xizmat qiladi. – Odobni odobsizdan o‘rgan deganlaridek axloq va axloqsizlikni farqlash uchun maktabgacha ta‘lim tarbiya yoshidagi bolalarga bu sifatlarni kuzatish orqali o‘rgatish yetarli samara beradi, chunki bola eshitgandan ko‘ra ko‘rgan narsalarini eslab qolishi oson kichadi.

Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo‘lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san‘atdagi go‘zalliklarni ko‘ra bilish kirtadi. Inson o‘zida mavjud bo‘lgan narsalardan go‘zallik topa olishining o‘zi ham bir baxtdir. Go‘zallik, atrofdagi ob‘ektlardan zavq olish tushunchalarini bolalarga ilk yosh davrlaridanoq singdirib borish, ularda nafosat, san‘atga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Inson yashar ekan hayoti doimiy ravishda mehnatlar girdobida kechadi. Maktabgacha ta‘lim tarbiya yoshidagi bolalarda mehnat tarbiyasini shakillantirish ilk bor o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish jarayonlarida sodir bo‘ladi. Misol uchun bog‘chaga kelayotgan bolada kiyimlarini o‘zi kiyishga harakat qilishi, narsalarini yig‘ib yurishi, kichik yoshdagilarda esa o‘zi ovqatlanishga harakat qilishida namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan iqtisodiy tarbiyaning maqsadi bolalarni iqtisodiy bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga tayyorlashdir. Maktabgacha ta‘lim tarbiya yoshidagi bolalarga iqtisodiy tarbiyani shakillantirishda isrof, tejamkorlik, oila budjeti kabi tushunchalar ham birga tarbiyalab boriladi.

Ekologik tarbiya atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga, ona tabiat bergan har bir ne‘matni asrashga, har bir ne‘matni meniki deb qarashga o‘rgatadi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy, fazilatlarini shakillantirish, uning atrof – tevarak, jamiyat, odamlar hamda o‘ziga nisbatan munosabatlari doirasini vujudga keltirish va uni kengaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy tarbiya insonning atrofdagi ijtimoiy muhitini kengaytiradi. Tarbiyaning barcha turlarini o‘zida mujassamlashtirgan, qaysidur darajada to‘liq o‘zlashtira olgan insonni to‘laqonli tarbiyalangan shaxs deyish mumkin.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki inson tarbiyasiz yashay va rivojlana olmagandek, jamiyat ham usiz barqaror bo‘la olmaydi. Insoniyat paydo bo‘libdiki hech qayerda qat‘iy belgilanmagan bo‘lsada, ma‘lum qonuniyat asosida

hayot kechiradi. Inson ongi, aql shuuri bilan o‘lchanadigan bu mezon tarbiyadir. Uning salmog‘i faqatgina aqll va farosat tarozilari orqali o‘lchovdan o‘tadi. Inson hayotida tarbiyaning salmog‘i yo‘qolar ekan, buning oqibatida kishilik jamiyatidagi barqarorlik ham buziladi. Inson yashar ekan tug‘ilganidan toki umrining so‘nggiga qadar hayoti tarbiya qonuniyatlari asosida kechadi. Bola tarbiyaning o‘lchovini o‘sib ulg‘aygani sari chuqurroq anglab boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh. Sodiqova “Maktabgacha pedagogika” darslik. T.2012
2. A.Avloniy. “Tanlangan asarlar” 1-jild. T.2006
3. F.Qodirova. SH. Toshpo‘latova. N.Kayumova. M.A’zamova. „Maktabgacha pedagogika” T. “Tafakkur” 2019
4. R.Mavlonova. N.Voxidova. N. Raxmobqulova. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” T.2010.

КОНЦЕПЦИИ РАЗВИТИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ, ПРОБЛЕМЫ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ

Юлдашева Д.А.,
старший преподаватель ТГЭУ и УГУ

Аннотация: Одним из наиболее эффективных инструментов развития и совершенствования экономики каждого государства является активная инвестиционная политика. Именно по этой причине сегодня остро встал вопрос трансформации финансовой отчетности, составленной по Национальным стандартам бухгалтерского учета, в соответствии с требованиями МСФО, информация о деятельности предприятий и компаний на финансовых фьючерсных рынках интересна инвесторам и не менее важна. В связи с этим большое значение имеет изучение международной практики учета финансовых инструментов и представления информации по ним.

Ключевые слова: учет финансовых вложений, финансовая отчетность, финансовые активы, финансовые обязательства, финансовые инструменты

Введение

В современных условиях становления рыночной экономики и совершенствования управления, выработки новой стратегии развития предприятий усиливаются роль и значение бухгалтерского учета.

Научно обоснованная система организации бухгалтерского учета содействует эффективному использованию всех ресурсов, улучшению отражения и анализа финансово-имущественного положения предприятий.

На данном этапе к системе бухгалтерского учета предъявляются повышенные требования в связи с ориентацией на международные стандарты учета и отчетности и более широкое использование положительного отечественного и зарубежного опыта, на обработку бухгалтерской информации с применением различных средств вычислительной техники. Решение этих проблем связано с дальнейшим развитием теоретических и методологических положений бухгалтерского учета.

В любой организации следует вести бухгалтерский учет. Для управления производственно-хозяйственной деятельностью организации необходимо иметь информацию о ее имуществе и обязательствах, которую получают в системе бухгалтерского учета. Центральной проблемой в мире экономических отношений является стандартизация бухгалтерских норм и правил. При этом

немаловажной проблемой экономического мира остается приведение бухгалтерского учета к единой системе. Требования к единообразию и понятности применяемых систем учета возникают из-за усиленного развития бизнеса, объединяющегося в единую сферу экономики. Сильное давление со стороны банковских организаций и всего экономического мира приводит к нужде перехода национальных систем на международные нормы бухгалтерского учета, а также массовой переквалификации бухгалтеров и аудиторов.

Некоторые особенности этой системы не благотворно влияют на развитие экономики. Не стоит бездумно заимствовать систему, следует учитывать специфику национального подхода. Расширение роли бухгалтерского учета и отчетности, подготовки информации — результат перехода нашей страны к рыночной экономике. На официальном уровне была признана необходимость создания в Узбекистане системы учета и отчетности, основанной на международных рыночных принципах. Решением выступили международные стандарты финансовой отчетности (МСФО). МСФО позволит стране наравне с другими организациями участвовать в борьбе за инвестиции, а также повысит качество отчетности для пользователей в результате ее прозрачности и сопоставимости. Таким образом, переход на МСФО является важнейшей частью перестройки предприятий в соответствии с требованиями рыночной экономики. Такой опыт имеет больше практическое значение в привлечении капитала в национальную экономику.

Обзор литературы

В силу национальных традиций сформировался еще один принцип, согласно которому обязательства перед начальником важнее обязательств перед другими лицами. Учет трактовался как трудовая повинность, налагаемая на администрацию вышестоящими начальниками. А раз так, то и вести учет можно некачественно, лишь бы никто не наказывал. Этот принцип силен и в настоящее время, только в лице начальника выступает инспектор налогового органа.

Быстро развивался учет на уральских металлургических заводах. В.И.Геннин (1676-1750 гг.) разработал систему производственного учета, которая обеспечивала сплошную документацию всех фактов хозяйственной жизни, регулярное проведение инвентаризаций и составление отчетности. Кроме того, он усовершенствовал методику учета затрат с помощью линейной записи. В результате в системе учета формировалась аналитическая

информация, необходимая для управления структурными подразделениями предприятий.[1]

Однако двойная запись не использовалась, так как учет в натуральных единицах был более понятен. Успех любой работы невозможен без контроля, средством контроля были доносы. Следствием подобных мер стало то, что в государственном хозяйстве учет был хорошо развит.

Наиболее серьезно с точки зрения теории учет развивался в хозяйствах помещиков. Главными объектами учета были люди, скот, пашни, инвентарь. Основным методическим приемом служила инвентаризация ценностей и людей. Записи заносились в специальные книги, на бирки.

Первый этап начался с трудов П. И. Рейнбота и А.В.Прокофьева. Оба специалиста стояли на рубеже старой и новой русских школ. Рейнбот сводил предмет бухгалтерского учета к изменениям в имуществе. В объяснении причин двойной записи он исходил из принципов персонификации. Цель учета состояла в недопущении ошибок в регистрации и системном выяснении причин формирования прибылей и убытков. Синтетический учет П.И.Рейнбот трактовал как контрольный, поскольку сальдо и обороты синтетического учета должны контролировать сальдо и обороты по аналитическим счетам. Башне трактовался как обобщающий счет, который закрывает остальные счета. Практику учета ученый излагал по немецкой форме счетоводства.[2]

А.В.Прокофьев исходил из того, что приход ценностей всегда вызывает расход других ценностей. Он также полагал, что итальянская школа счетоводства удобна для изучения, и требовал, чтобы каждая операция записывалась в журнал отдельно.

С традиционными взглядами П.И.Рейнбота и А.В.Прокофьева был полностью не согласен Ф.В.Езерский, который раскрывал недостатки двойной бухгалтерской записи, называя ее воровской. Взамен двойной записи он предлагал тройную, которую в мировой бухгалтерской теории и на практике называют русской. Хотя научные оппоненты Ф.В.Езерского отмечали, что это одна из разновидностей двойной записи, он именовал ее тройной по следующим причинам:[3]

— регистрация ведется по трем направлениям — приход, расход и результат движения ценностей;

— используются три учетных регистра, или, как говорил Ф.В. Езерский, параллели: журнал (хронологическая запись), Главная книга (систематическая запись), баланс (сводно-отчетная запись);

— правильность записей проверяется тремя признаками верности, присущими каждой параллели (книге).

Новаторство Ф.В.Езерского заключалось в том, что он ставил перед учетом новые цели:

— определение с помощью бухгалтерских записей финансового результата в любой момент времени;

— использование только покупных цен и оценки по себестоимости, использование счета наценки (торговой скидки), нахождение реализованной торговой наценки по среднему проценту;

— объединение аналитического и синтетического учета;

— достижение самоконтроля путем заранее заданного в учете совпадения контрольных сумм (19 показателей);

— проведение инвентаризации последовательно и постоянно (например, сегодня проверяют чай и кофе, завтра — спички и сахар).

Ф.В.Езерский дал определение понятия «мертвая точка», то есть уровня, с которого предприятие начинает получать прибыль, покрыв издержки. Система Ф.В.Езерского была рекомендована для изучения во всем мире бухгалтерским конгрессом, который проходил в 1912 г. в Шарлеруа (Бельгия), так как идеи этой системы были новыми для современников.

Внести новации в бухгалтерский учет пытались многие. Так, И. Шмелев изобрел оригинальную «четверную бухгалтерию», но она оказалась модификацией двойной бухгалтерской записи.[4]

Если Ф.В.Езерский и И.Шмелев пытались разрушить парадигму двойной бухгалтерской записи, то И.Валицкий, С.Иванов и Э.Фельдгаузен и другие российские ученые пытались изменить ее изнутри.

И.Валицкий известен попыткой создания макроучета — бухгалтерии, построенной на базе статистических методов. В основе записей лежат не бухгалтерские документы, а акты статистического исчисления. И.Валицкий говорил, что вести макроучет нужно общественными, а не государственными силами. Основной недостаток теории И.Валицкого заключался в отсутствии механизма демонстрации использования двойной записи в системе макроучета.[5]

Результаты и анализ

Мир бизнеса развивается быстро, а компании стараются развиваться вместе с ним и соответствовать новым требованиям. В частности, увеличивается

потребность привлечения иностранных инвестиций. Чтобы была возможность максимально эффективно взаимодействовать с зарубежными партнёрами, важно работать в соответствии с международными стандартами, в особенности финансовыми. В этом может помочь переход на отчётность по МСФО (Международные стандарты финансовой отчётности).

Начиная 2022 года составлять по итогам 2021 года предварительную финансовую отчетность согласно МСФО должны все организации, которых обязали с января 2021 вести учет на основе международных стандартов. А с 2023 года формировать уже полный комплект годовой финансовой отчетности по МСФО.

В Узбекистане переход хозяйствующих субъектов на МСФО происходит поэтапно согласно постановлению президента страны от 24 февраля 2020 года. Этот процесс осуществляется с целью обеспечения прозрачности финансового положения предприятий и увеличения объёма привлекаемых инвестиций.

В состав МСФО входит 44 документа и 25 разъяснений к ним. Они включают в себя рекомендации по составу и способам представления финансовых данных. По мере развития финансовых институтов в мире, стандарты обновляются, в них вносятся изменения.

На сегодняшний день многих руководителей организаций, финансистов и бухгалтеров беспокоит вопрос безболезненного перехода на ведение учёта по МСФО и сдачи отчётностей государственным органам и внешним пользователям. В связи с недостатком специалистов в данной сфере многие задаются вопросами: как быстро изучить и использовать МСФО на практике, как грамотно осуществить трансформацию для сдачи отчётностей и насколько затратно будет нанимать специалиста для этого, если собственных сил недостаточно. Многие затрудняются оценить трудоёмкость всего процесса и задумываются над тем, с чего начать, как организовать плавный переход.

Компания Leading Group, имеющая большой опыт автоматизации бизнес-процессов и упрощения работы бухгалтеров, разработала новый модуль — «МСФО к программе «1С Бухгалтерия для Узбекистана, редакция 3.0». Данное решение создано для облегчения процесса перехода и оказания помощи при его организации.

Новый модуль МСФО обеспечит сохранение уже внесённых данных в программу, так как он разворачивается в уже работающих программах без нанесения ущерба данным и является частью привычного «1С» интерфейса.

Данный модуль обеспечивает возможность ведения отчётности в двух учётах одновременно — налоговый (НУ) для сдачи регламентированной отчётности в налоговые органы и по МСФО методом мэппинга (соответствия счетов).

Организована возможность ведения параллельного учёта по участкам, учитываемых обособленно от НУ. К данным объектам учёта можно отнести внеоборотные активы, финансовые инструменты, расходы будущих периодов, резервы, отложенные налоги и прочее. Новый модуль обеспечивает ведение учёта в НУ и в МСФО параллельно, только в НУ, не отражая проводки в МСФО, или только в МСФО, не отражая проводки в НУ.

Разработаны отдельные стандартные отчёты оборотно-сальдовой ведомости (ОСВ) НУ и ОСВ МСФО в двух разделах внутри единой программы для удобного отслеживания процессов бухгалтерами в двух разных учётах. Также Leading Group разработал возможность для пользователей создавать и настраивать финансовую отчётность в пользовательском режиме в удобном для них виде по нужным им счетам, чтобы данный процесс не являлся финансово затратным. С учётом пожеланий иностранных инвесторов, для которых готовится отчётность по МСФО, в соответствующем разделе создана возможность вести параллельный учёт в национальной и иностранной валютах и формирование отчётностей по МСФО в двух валютах.

МСФО поможет более эффективно вести дела в сотрудничестве с иностранными партнёрами, так как будет единая система финансовой отчётности, понятной обеим сторонам. Такая отчётность отличается высокой информативностью и полезностью для всех заинтересованных лиц. К тому же, формирование отчётности в соответствии с международными стандартами даст возможность узбекским компаниям выйти на зарубежные рынки.

Помимо этого, использование МСФО помогает сэкономить ресурсы и способствует повышению конкурентоспособности компании при привлечении инвестиций на зарубежных рынках.

Формы по МСФО состоят из 6 отдельных отчетных форм:

1. «Сведения об отдельном финансовом положении юридических лиц, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (далее условно – форма №1);
2. «Сведения об отдельном совокупном доходе юридических лиц, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (условно – форма №2);

3. «Сведения о консолидированном финансовом положении юридических лиц, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (условно – форма №1-к);

4. «Сведения о консолидированном совокупном доходе юридических лиц, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (условно – форма №2-к);

5. «Сведения о финансовом положении страховых организаций, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (условно – форма №1-страхование);

6. «Сведения о прибыли и убытке страховых организаций, перешедших на Международные стандарты финансовой отчетности» (условно – форма №2-страхование).

В соответствии с пп. 1–2 №ПП-4611 эти формы должны представлять:

- акционерные общества, страховые организации и крупные налогоплательщики (кроме коммерческих банков);
- субъекты предпринимательства, составляющие финансовую отчетность по МСФО на добровольной основе.

С 1 января 2021 года обязаны вести бухгалтерский учет на основе МСФО пп. 1–2 №ПП-4611 от 24.02.2020 г.:

- акционерные общества;
- коммерческие банки;
- страховые организации;
- крупные налогоплательщики;
- прочие субъекты предпринимательства, составляющие финансовую отчетность по МСФО добровольно.

Каковы основные отличия в данных бухгалтерского учета на основе МСФО для целей расчета налога на прибыль от прежней практики бухгалтерского учета. Отличия могут быть разными в зависимости от специфики деятельности предприятия (отраслевые факторы), осуществляемых операций, учетной политики по МСФО и т.д. При этом можно выделить несколько основных примеров отличий, которые будут влиять на расчет налога на прибыль за 2021 год и последующие годы (перечень не исчерпывающий):[6]

Объект учета	Отличия
Основные средства	Оценка объектов при переходе на МСФО, курсовые разницы по импортированным объектам после даты перехода на МСФО, реклассификация из статей запасов и т.д.
Нематериальные активы	Оценка объектов при переходе на МСФО, курсовые разницы по импортированным объектам после даты перехода на МСФО, реклассификация из статей расходов будущих периодов и т.д.
Курсовые разницы по предварительным оплатам, выплаченным и полученным в иностранной валюте	Оценка импортированных материалов, товаров, основных средств, нематериальных активов и услуг, себестоимость реализованной продукции и товаров, выручка в иностранной валюте (в том числе на экспорт), доходы и расходы по курсовым разницам
Обязательства по отпускам работников	Признание расходов
Скидки поставщиков, в том числе по импортным поставкам	Периоды признания
Выручка по долгосрочным контрактам	Суммы и периоды признания выручки

Заключение

Процесс эволюции бухгалтерского учета в Узбекистане был очень сложен. Современная тенденция к переходу на международные стандарты также не легка. Однако это будет важным шагом в процессе построения взаимного доверия между Узбекистаном и международным сообществом. Увеличение корпоративной прозрачности будет означать, что инвестиции станут менее рискованными для инвесторов, а значит, более дешевыми.[7] Очевидно, что ни один национальный финансовый рынок не сможет нормально развиваться в отрыве от международного. По итогам первых двух лет реформы уже можно говорить об определённых как положительных результатах, так и о проблемах перехода. Тем не менее, реформа будет реально закончена лишь, когда каждый бухгалтер будет профессионально владеть основами МСФО, а руководители компаний — действительно заинтересованы в предоставлении достоверной и объективной информации. Это означает, что более активно должна вестись работа по повышению квалификации бухгалтеров.

Еще одним из способов снижения риска потери клиентов - это развитие и внедрение новых технологий, таких как искусственный интеллект, машинное обучение и анализ больших данных. Например, один из крупнейших международных банков Citibank разработал аналитическую систему, которая помогает клиентам управлять своими финансами, оптимизируя расходы и инвестиции.

Другой риск, с которым сталкиваются цифровые банки - это риск потери данных и кибератаки. В связи с тем, что все операции проводятся в электронном виде, хакерам может быть проще получить доступ к цифровым банковским

системам. Хакеры могут использовать этот доступ для кражи личных данных клиентов, сбора финансовой информации или даже совершения мошеннических операций. Для того чтобы уменьшить этот риск, цифровые банки должны инвестировать в передовые методы шифрования и обеспечения безопасности, включая двухфакторную аутентификацию и многофакторную проверку подлинности. Например, JP Morgan Chase в свое время вложил \$600 млн в свою кибербезопасность, включая разработку новых технологий для обнаружения и предотвращения кибератак.

Еще один риск, который нужно учитывать при развитии цифровых банков - это операционный риск. Этот риск связан с возможными техническими проблемами, связанными с например, сбоями в системе, неудачным обновлением программного обеспечения или непредвиденными событиями, такими как наводнения или пожары. Эти проблемы могут привести к перерывам в работе системы и недоступности услуг для клиентов. Для снижения операционного риска, цифровые банки должны разрабатывать и использовать системы контроля качества и безопасности, которые обеспечат бесперебойную работу системы, даже в случае возникновения проблем.

Также стоит отметить риск регуляторных изменений. Правительственные и регуляторные органы могут вводить новые законы и правила, которые могут повлиять на бизнес-модель и стратегию цифровых банков. Особенно актуален этот вопрос в Узбекистане в течение последних нескольких лет, что связано с реформированием банковской системы и введением новых законодательных норм, упомянутых ранее. Регуляторные изменения в данном случае могут повлиять на бизнес-модели банков, непосредственно касаться стандартов в области кибербезопасности, финансовой отчетности и аудита и так далее. Для снижения этого риска, цифровые банки должны постоянно отслеживать изменения в законодательстве и регулятивных требованиях, а также внедрять соответствующие изменения в свою бизнес-стратегию.

Наконец, важно учитывать и риск ухудшения качества обслуживания. Когда банки переходят на цифровые платформы, они могут столкнуться с проблемами, связанными с качеством обслуживания.

Количество пользователей дистанционными банковскими услугами в январе 2023 года достигло 30 000 914, что почти на 50% больше по сравнению с прошлым годом. Технология онлайн-банкинга позволяет пользователям управлять своими финансами через Интернет. Они могут проверять свой баланс,

переводить деньги и оплачивать счета без необходимости посещать физический банк.




Рис. 2 Количество пользователей дистанционными банковскими услугами в Узбекистане [4]

Однако, автоматизация процессов может привести к потере персонального подхода к клиентам, что может отрицательно сказаться на качестве обслуживания. Чтобы уменьшить этот риск, цифровые банки должны находить баланс между автоматизацией процессов и сохранением персонального подхода к клиентам.

Выводы и рекомендации. Цифровизация банковской индустрии стала неременным условием для конкуренции в наше время. Сегодня, когда все больше клиентов предпочитают проводить финансовые операции онлайн, цифровые банки получают возможность оказывать услуги с меньшими затратами и более эффективно управлять своими ресурсами.

Однако, существует ряд рисков, с которыми сталкиваются цифровые банки в процессе своего развития, среди которых:

- Кибербезопасность
- Неправильное использование данных
- Риски операционной деятельности
- Риск конкуренции
- Риск регуляторной деятельности

По мнению авторов данной работы при развитии цифрового банкинга необходимо:

1. Обеспечивать безопасность данных: Банки должны обеспечивать высокий уровень безопасности данных при использовании цифровых продуктов и услуг. Это позволит клиентам чувствовать себя уверенно и доверять банку, что повысит их лояльность.
2. Интегрировать различные каналы обслуживания: Банки должны интегрировать различные каналы обслуживания, такие как мобильные приложения, сайты и социальные сети, чтобы клиенты могли получать услуги в любое время и в любом месте. Это позволит банкам удерживать клиентов и увеличивать количество транзакций.
3. Использовать искусственный интеллект: Банки должны использовать искусственный интеллект для повышения эффективности и качества услуг. Использование искусственного интеллекта позволит банкам автоматизировать процессы, предоставлять персонализированные услуги и увеличивать точность анализа данных.
4. Упрощать процессы: Банки должны упрощать процессы для клиентов, чтобы сделать использование цифровых продуктов и услуг более простым и удобным. Это поможет банкам повысить лояльность клиентов и увеличить количество транзакций.
5. Анализировать данные: Банки должны анализировать данные, собираемые от клиентов, чтобы определить их потребности и предпочтения. Это позволит банкам создавать более персонализированные продукты и услуги, что повысит удовлетворенность клиентов.
6. Улучшать процессы обратной связи: Банки должны улучшать процессы обратной связи, чтобы клиенты могли предоставлять свои отзывы и предложения. Это поможет банкам улучшать качество продуктов и услуг и повышать удовлетворенность клиентов.

В целом, при цифровизации банков, необходимо учитывать множество факторов и рисков, но при правильной стратегии и подходе, цифровизация может стать ключевым фактором успеха для банка, позволяющим предоставлять более удобные и персонализированные услуги для клиентов и увеличивать свою эффективность.

Список литературы:

1. Интернет-ресурс: <https://bank.uz/deposits>
2. УП-5296 «О мерах по коренному совершенствованию деятельности центрального банка Республики Узбекистан» от 09.01.2018 г. URL: <https://www.lex.uz/docs/3494938>
3. УП-6079 «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» URL: <https://lex.uz/docs/5031048>
4. Официальный сайт Республики Узбекистан: <https://cbu.uz/ru/>
5. Азимова Ш.С., Хамрохужаева С.Т. Topical Issues of the Need for Digitalization of the Banking System in the Republic of Uzbekistan // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching Volume 7, March, 2022 ISSN: 2795-739X URL: <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/988/874>
6. Интернет-ресурс: <https://review.uz/post/banki-i-dengi-v-cifrovoy-transformacii>

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TIZIMI

Berdaliyeva Sevara Damirovna

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika insituti 2- kurs magistranti

Email: sevaraberdialieva243@gmail.com

Muminov Azizbek Boxodir o‘g‘li

Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi tarix
fani o‘qituvchisi

Email: amuminov337@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarda o‘zini- o‘zi boshqarish madaniyatini shakllantirish mexanizmi, unda amalga oshirish lozim bo‘lgan jarayonlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, usullari, metodlari xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *O‘zini-o‘zi boshqarish, tafakkur, g‘oya, fikr, jarayon, pedagog, nutq, ichki tuyg‘u, iroda, diqqat, mnemik jarayonlar.*

Abstract *This article talks about the mechanism of formation of self-management culture among future pedagogues, social-psychological aspects, methods, methods of the processes that should be implemented in it.*

Key words: *Self-management, thinking, idea, thought, process, pedagogue, speech, work feeling, will, attention, mnemonic processes.*

KIRISH

Pedagoglik – inson jamiyati tarixi boshlangandan e‘tiboran davom etib, shu bilan birga hamma vaqt jamiyat va jamoatchilik tomonidan e‘tiborga loyiq deb hisoblanib, e‘zozlab kelingan kasbdir.

Nasiriddin Tusiy o‘zining “Pedagoglarni tarbiyalash to‘g‘risida” degan asarida shunday deydi: “Pedagog munozaralarni olib borishni, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot kilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi lozim... Pedagog nutqi hech qachon va hech qayerda zaharxandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida pedagogning o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin... [1]”

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagog tomonidan tashkil etilgan o‘quv jarayonida subyektning ta‘lim olishi uning o‘ziga xosligi va xarakterida namoyon bo‘ladi, bu uning o‘quv usuliga ta‘sir ko‘rsatadi. Shakllangan individual o‘quv usullari sxematik ravishda ikki qutb bilan ko‘rsatilishi mumkin: “ijobiy” – “salbiy”. Quyida keltirilgan jadval o‘quv jarayonida bunday usullarni ko‘rsatib beradi. Pedagog dars jarayonida buni inobatga olgan holda yondoshishi maqsadga muvofiqdir.

*1-jadval***Ta'lim jarayonida bolalarning individual farqi (G.Klaus bo'yicha)**

Taqqoslash parametri	Ijobiy tur	Salbiy tur
Tezlik	Tez, oson, qiyinchiliksiz. Qat'iy, vaqt bo'yicha mustahkam, osonlik bilan qayta o'qiladi, moslashuvga ega	Sekin, qiyinchilik, zo'riqish, og'irlik bilan, yuzaki, birzumlik, tezda unutadi, qiyinchilik bilan qayta o'qiydi. Rigidlik, qotib qolish bilan xarakterlanadi.
Sidqidillik	Vijdonan, saranjomlik bilan, to'liq va asoslangan	Sovuqqonlik, palapartish, o'lda-jo'lda, yuzaki
Motivatsiya	Sidqidillik, o'z ixtiyori, o'z tashabbusi bilan harakat qiladi. Faol jon-jahdi bilan kirishib, bor kuchini jalb qiladi.	Zo'rma-zo'raki, majburan, bosim ostida, harakatsizlik, loqaydlik, dangasalik bilan, qiziqishsiz
Ish-harakatining yo'naltirilishi	Mustaqil, ajralgan holda, birovga bog'liq bo'lmasdan. Rejalangan, maqsadga yo'nalgan. Doimo qat'iyat bilan.	Mustaqil emas, taqlid qilib, maqsadsiz, rejasiz, pala-partish, ondasonda, qat'iyatsiz.
Kognitiv tashkil etish	Tushunish bilan, anglangan, yo'nalgan, natijalarni anglagan holda, ratsional, iqtisod qilgan holatda.	Tushunmasdan, shunchaki, xato usul bo'yicha. Tayyorlanmasdan, to'satdan, ratsional bo'lmagan holda, kam foydali.
Umumiy baho	Yaxshi	Yomon

Bo'lajak pedagoglarning oliy o'quv yurtida olgan psixologik bilimlari ikki unchalik yoqimli bo'lmagan xossaga ega[7]. Ular, birinchidan, pedagogga amaliyotda zarur bo'lgan barcha bilimlarni o'z ichiga qamrab olmagan, bunga sabab pedagogik oliy o'quv yurtlarida psixologik fanlarni o'qitish uchun ajratilgan dars soatlari hajmining chegaralanganligidir. Ikkinchidan, bu olingan bilimlar tezda eskirib qoladi va hech bo'lmaganda besh yilda bir marta yangilab turishni talab etadi, buni o'z-o'ziga ta'lim berish yoki malaka oshirishda amalga oshirsa bo'ladi.

Pedagogning psixologik jihatdan o'z ustida ishlashi deyilganda, uni muntazam ravishda psixologiya fanining turli yo'nalishlaridagi eng yangi yutuqlar bilan tanishib borishini nazarda tutadi, ular tarbiya va ta'lim bilan bevosita va bilvosita bog'liqdir. Bu ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi, differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, shuningdek, boshqa fanlar chegarasidagi tibbiyot, patopsixologiya, psixofiziologiya va psixoterapiya.

Pedagogning amaliy faoliyatida psixologik ma'lumotlar olishi mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxati yetarli darajada salmoqlidir. Holbuki, pedagogga muntazam ravishda ilmiy kitoblarni va jurnallarni o'qishga hojat yo'q, asosiy psixologik bilimlar jamlangan holda keltirilgan, pedagogik faoliyat uchun foydali bo'lgan bo'limlarga murojat qilishning o'zi yetarlidir.

Pedagogning kasbiy faoliyati davomida juda zarur jiddiy jihat – bu o'z- o'zini boshqarishdir, ya'ni o'z psixik holati va xulq- atvorini boshqara olish qobiliyati, murakkab pedagogik holatlarda muqobil harakatlana olishidir.

O'z-o'zini boshqarishning psixologik asoslari bilish jarayonini o'z ichiga oladi: Sezgi, idrok, diqqat, xayol, tafakkur, xotira, nutq, shuningdek shaxs xislatlari – xulq atvori, emotsional holati, vaziyatga munosabati. Yuqorida qayd etib o'tilgan psixik jarayonlarda o'z-o'zini boshqarish odam xususiyatlari va holatlari, uning irodasi va ichki tuyg'ulari bilan bog'liqdir. Ma'lumki, ichki tuyg'u barcha psixik holatlarni boshqarishda erkinlik asosi bo'lib xizmat qiladi, iroda bo'lsa xatti - harakatlar quvvati va yo'nalishlarini ta'minlaydi.

Qabul qilish o'z- o'zidan boshqaruvni aniq qabul qilish vazifalarini qo'yadi – obrazni tuzish, qo'yilgan savollarga – nimani kuzatish kerak? nima uchun kuzatish? qanday qilib kuzatish? – kabi aniq javob topish kerak. Kuzatuvni boshlashdan avval biz o'zimiz uchun bu savollarga javob berishimiz lozim bo'ladi.

Murakkab pedagogik sharoitlarda (vaziyatda) bunday savollarga aniq javob topishni iloji bo'lmaydi, bu vaziyatda aniq javob topish uchun bir muncha aqliy va jismoniy kuch sarf qilishga to'g'ri keladi. Bunday savollarni avvaldan o'ylab ko'rish va ularga amal qilishni talab qiladi, natijada o'z- o'zini boshqarishni nazarda tutadi [6].

Diqqat- e'tiborni boshqarish bir muncha boshqa narsalarga asoslanadi. Ixtiyoriy bo'lmagan diqqat- e'tiborni boshqarish ular bilan bog'liq bo'lgan holatlar, ya'ni organizmning psixofiziologik holatlarini boshqarish orqali bevosita amalga oshirish mumkin. Charchoq oqibatida ixtiyoriy bo'lmagan diqqat-e'tibor yomon boshqariladigan bo'lib qoladi. Xuddi shunday holat kasallik davrida, haddan tashqari emotsional junbushga kelgan holatda, affekt yoki stress holatlarida ro'y beradi. Bir muncha ta'sir qiladigan vositalar – dam olish, davolash, psixofizik autotrening bu tarzda diqqatni boshqarishda yaxshi samara beradi.

Ixtiyoriy diqqatni, qiziqish uyg'otadigan, so'z yordamida yoki qo'llab-quvvatlash orqali boshqarish mumkin. Odamning diqqatini biror narsaga qaratish uchun, uning qiziqishini qo'llab - quvvatlash kifoya qiladi. So'z orqali o'z-o'zini yo'naltirish yoki verbal o'zi-o'zini boshqarish har doim to'g'ridan- to'g'ri yoki bevosita qiziqishga asoslanadi. Ayrim hollarda o'zini majbur qilib qandaydir obyekt, holat yoki voqelikning qiziqarli tomonlariga e'tiborni qaratish, diqqatni uzoq bo'lmagan vaqt oralig'ida jalb qilish uchun yetarli bo'ladi. Qabul qilish orqali ham ularni ma'lum darajada boshqarish mumkin. Pedagog uchun eslash qobiliyatini boshqarish bir muncha qiyinroq va zarurroqdir. Uchtadan ikkita bizga ma'lum eslash jarayoni – eslab qolish va olingan axborotni qayta tiklashni – o'z- o'zini boshqarish bilan rivojlantirish mumkin. Eslab qolish jarayonining uchinchisi – axborotni saqlab qolishni boshqarish mushkulroqdir, chunki u ong osti holati (shaxs tomonidan anglab olinmaydigan psixik va holatlar yig'indisi) darajasida ishlaydi holbuki yodlashni anglab tashkil etib, bevosita ularni ham boshqarish mumkin. Mnemik jarayonlarda o'z- o'zini boshqarish har xil usullarga asoslanadi, tasavvur assotsiatsiyalanib bir butunga bog'lab, ongli ravishda ko'rib chiqiladi. Eslab qolish zarur bo'lgan narsalar ko'z orqali ko'rilsa, yoki biror narsa bog'lab tasavvur qilinsa yodda qolishi kuchayadi. Eslab qolishni tezlatish uchun sun'iy ravishda yodda bo'lgan persektiv obrazlarni va tashqi narsalarni tafakkurda uyg'otib, ong orqali ularni yangi eslab qolishi kerak bo'lgan narsalar bilan bog'lash lozim. Ongli ravishda fikrlashni ham boshqarish, uni yanada samaraliroq qilish mumkin.

NATIJARLAR

Tafakkurni o'z- o'zida boshqarishning asosiy usullari quyidagilardir [5]:

- hal qilinishi kerak bo'lgan vazifa shartlarni diqqat bilan tahlil qilish;
- talab qilingan natijani berilgan shartlar bilan solishtirish, bunday maqsad kerakli natijani olish uchun yetishmagan narsani aniqlash;
- doimiy ravishda mashq o'tkazib borib, tafakkurni chiniqtirish;

➤ tafakkurni aniq yoʻnalishdagi mashqlar bilan chiniqtirish, yaʼni ketma- ket izlanish va yetarli darajada hal qilinishning alternativ yoʻllarni koʻrib chiqish (bu – vosita anglash jarayoni “sikllanish” deb nomlanadi)

➤ vazifani hal qilishning yoʻllari bilan bogʻliq boʻlgan aniq farazlarni oʻz ichida yoki ovoz chiqarib soʻzlash (gapirish).

XULOSA VA MUNOZARA

Hozirgi zamon maktabi muallimlik shaxsi va kasbiy faoliyati uchun zarur boʻlgan sifat va fazilatlarni egallagan, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol pedagoglarni talab qilmoqda.

Ana shunday qator muammolarni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan mamlakatimiz taʼlimi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazishdir. Endilikda oliy taʼlim muassasalari oldiga faqatgina oʻqimishli insonni emas, balki voqealarni oldindan koʻra biladigan, toʻgʻri qaror qabul qila olish mahoratiga ega, oʻzini-oʻzi rivojlantirish zaruriyatini tushunib yetadigan oqil va barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi qoʻyilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Muslimov N.A. Boʻlajak kasb taʼlimi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2014.
2. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 2016.
3. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2015.
4. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2013.
5. www.lib.ru
6. www.lex.ru
7. www.ziyonet.uz

К ВОПРОСУ ВЛИЯНИЯ СОСТАВА СЕРДЕЧНИКА Порошковой проволоки на свойства металла сварного шва

Отакузиев Зиёдулло

*Ассистент Янгиерского филиала Ташкентского инженерно-экономического
института, Сирдарьинская обл., г.Янгиер. ул.Тинчлик*

Суюнов Давлатбек

*Студент 3- курса Янгиерского филиала Ташкентского инженерно-
экономического института, Сирдарьинская обл., г.Янгиер. ул.Тинчлик*

Рустамов Азизбек

*Студент 3- курса Янгиерского филиала Ташкентского инженерно-
экономического института, Сирдарьинская обл., г.Янгиер. ул.Тинчлик*

Отакулов Отабек

*Студент 3- курса Янгиерского филиала Ташкентского инженерно-
экономического института, Сирдарьинская обл., г.Янгиер. ул.Тинчлик*

Порошковая проволока представляет собой непрерывный электрод трубчатой или другой, более сложной конструкции с порошкообразным наполнителем - сердечником. Сердечник состоит из смеси минералов, руд, ферросплавов металлических порошков, химикатов и других материалов. Назначение различных составляющих сердечника подобно назначению электродных покрытий: защита расплавленного металла от вредного влияния воздуха, раскисление, легирование металла, связывание азота в стойкие нитриды, стабилизация дугового разряда и др.

Составляющие сердечника должны, кроме того, удовлетворять общепринятым требованиям, предъявляемым ко всем сварочным материалам: обеспечивать хорошее формирование швов, легкую отделимость шлаковой корки, провар основного металла, минимальное разбрызгивание металла, отсутствие пор, трещин, шлаковых включений и других дефектов, определенные механические свойства швов и сварных соединений и т. д. [1,4]

Порошковые проволоки используются для сварки без дополнительной защиты зоны сварки, а также для сварки в защитных газах, под флюсом, электрошлаковой. Проволоки, используемые для сварки без дополнительной

защиты, называются самозащитными. Входящие в состав сердечника таких проволок материалы при нагреве и расплавлении в дуге создают необходимую шлаковую и газовую защиту расплавленного металла. В настоящее время наибольшее распространение получили порошковые проволоки для сварки в углекислом газе и самозащитные порошковые проволоки. В зависимости от диаметра и состава порошковой проволоки сварка может осуществляться во всех трех пространственных положениях [2,3].

Порошковые проволоки могут быть классифицированы по назначению, способу защиты металла от влияния воздуха, типу сердечника, механическим свойствам металла шва.

Назначение проволоки определяется классом свариваемого металла. Порошковые проволоки применяются для сварки низкоуглеродистых и низколегированных конструкционных сталей, легированных сталей, чугуна, цветных металлов и сплавов. Наиболее широкое распространение получили проволоки для сварки низкоуглеродистых и низколегированных сталей. По способу защиты порошковые проволоки делятся на два вида: 1) самозащитные; 2) для сварки с дополнительной защитой газом или флюсом. В зависимости от состава сердечника проволоки можно разделить на пять типов - рутил-органические, рутиловые, карбонатно-флюоритные, рутилфлюоритные, флюоритные.

Сердечник проволоки рутил-органического типа состоит в основном из рутилового концентрата и алюмосиликатов (полевой шпат, слюда, гранит и др.). В качестве раскислителей используется ферромарганец, а газообразующими материалами служат крахмал или целлюлоза. Проволоки с сердечником рутил-органического типа используются как самозащитные. В состав сердечника проволок рутилового типа входят в основном рутиловый концентрат, алюмосиликаты и руды. Раскислителями служат ферромарганец, ферросилиций, ферротитан, ферроалюминий. Проволоки с сердечником рутилового типа используются с дополнительной защитой углекислым газом.

В сердечник проволоки карбонатно-флюоритного типа вводят в качестве газообразующих материалов карбонаты кальция, магния, натрия. В качестве шлакообразующих материалов используют рутиловый концентрат, алюмосиликаты, окислы щелочноземельных металлов, флюоритовый концентрат. Раскисляют металл ферромарганцем, ферросилицием. Для дополнительного раскисления металла и связывания азота в нитриды в

сердечник проволок этого типа иногда вводят титан и алюминий. Проволоки с сердечником карбонатно-флюоритного типа чаще всего используют как самозащитные, но применяют и в сочетании с дополнительной защитой углекислым газом.

В состав сердечника проволок рутил-флюоритного типа входят в основном рутиловый и флюоритовый концентраты, в качестве шлакообразующих иногда вводят окислы щелочноземельных металлов, алюмосиликаты. Раскислителями служат ферромарганец и ферросилиций. Проволоки с сердечником этого типа применяются, как правило, с дополнительной защитой углекислым газом.

Сердечник проволок флюоритного типа в основном состоит из флюоритового концентрата, в небольших количествах вводят окислы щелочноземельных металлов. Для раскисления металла применяют ферромарганец, алюминий, магний. Алюминий также связывает азот металла сварочной ванны в нитриды. Проволоки с сердечником флюоритного типа используются как самозащитные.

В сердечники проволок всех типов с целью увеличения производительности сварки и придания благоприятных сварочно-технологических свойств вводят железный порошок.

Из применяющихся конструкций порошковых проволок (рис. 1) наиболее распространены проволоки трубчатой конструкции (а, б, в). Введение части оболочки внутрь сердечника (г, д, е, ж, з) обеспечивает более равномерное плавление его и более эффективную защиту металла от воздуха.

В процессе сварки порошковая проволока проходит стадии нагрева и плавления, сопровождающиеся окислением железа и легирующих элементов, разложением органических материалов, карбонатов и фторидов, комплексообразованием и пр. Развитие этих процессов в сердечнике оказывает существенное влияние на взаимодействие расплавленного металла с газами и шлаком и во многом определяет технологические показатели сварки.

Нагрев оболочки порошковой проволоки при сварке происходит преимущественно за счет тепла, выделяющегося при прохождении сварочного тока, и тепла, выделяющегося в активном пятне. При этом на участке проволоки от среза наконечника мундштука до дуги устанавливается квазистационарное температурное поле. Тепло, выделяющееся в активном пятне, нагревает лишь небольшой участок величиной не более 1-3 мм на торце проволоки. На этом участке оболочка проволоки нагревается до температуры плавления и выше.

Площадь оболочки s в поперечном сечении составляет обычно $2-5\text{мм}^2$. Расчет показывает, что в процессе сварки оболочка порошковых проволок на вылете может нагреваться до температур примерно 1000°C .




Рис. 1. Конструкция порошковой проволоки.

Нагрев сердечника осуществляется передачей тепла от дуги и оболочки. При высоких скоростях подачи проволоки тепло, выделяющееся на торце, распространяется на меньшую длину, чем в оболочке, так как теплопроводность сердечника на 1-2 порядка меньше теплопроводности оболочки.

Приведенные расчеты и эксперименты показывают, что уже при нагреве оболочки порошковой проволоки на вылете интенсивно развиваются процессы диссоциации и окисления составляющих сердечника.

Завершенность этих процессов к моменту оплавления проволоки зависит от состава сердечника и условий подвода тепла к его отдельным участкам, определяющихся режимом сварки, размерами и конструкцией проволоки и физико-химическими свойствами сердечника.

На кафедре «Технологические машины и оборудование» Андijanского машиностроительного института ведутся исследования по разработки состава сердечника с использованием компонентов на базе местного сырья и технологии производства порошковой проволоки.

Литература:

1. Абралов М.А., Дуняшин Н.С., Эрматов З.Д. Технология и оборудование сварки плавлением. - Ташкент: Komron press, 2014
2. Давыдов, Ю.С. Прогноз процесса образования шва переменного состава на основе моделирования металлургических процессов/Ю.С. Давыдов, В.Н. Бороненков, А.М. Саламатов // Автоматическая сварка. – 2012. – № 7–8. – С. 23–26.
3. Дмитрик, В.В. Моделирование процесса электродуговой сварки / В.В. Дмитрик, В.И. Калиниченко // Известия Вузов. Машиностроение. – 2003. – № С. 59–64.
4. www.svarka.ru.

ЛЕКСИКОЛОГИЯГА ДОИР ЎҚУВ МАТЕРИАЛЛАР МАЗМУНИ ҲАМДА ЎҚУВЧИЛАРДА ЛЕКСИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МАВЖУД АҲВОЛИ

Одилжонова Камола Абдувосит қизи

Андижон давлат педагогика институти

2-босқич магистранти

kamola_odiljonova@mail.ru

Аннотация. Ушбу мақолада дунё тил таълими назариясида лингвистик компетенциялар сирасида сўз туркумлари таснифи, сўзнинг лексик ва грамматик маънолари, морфологик шакллари, категорияларига доир юксак билим, малака ва кўникмалар мажмуи бўлган лексик компетенциянинг муҳим илмий-назарий ва амалий аҳамиятга эгаллиги, компетенцияларини ривожлантиришга жисдий эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: лингвистик компетентлик, коммуникатив компетентлик, нутқ, тафаккур, мулоқот, психолингвистика, лисоний билимлар.

Abstract. This article focuses on the important scientific-theoretical and practical importance of lexical competence, which is a set of high knowledge, qualifications and skills, as well as the classification of word groups, lexical and grammatical meanings, morphological forms, categories of words, among linguistic competences in the theory of world language education, and the development of competences.

Key words: linguistic competence, communicative competence, speech, thinking, communication, psycholinguistics, linguistic knowledge.

КИРИШ

Лингвистик компетентликни шакллантириш коммуникатив компетентлик билан бирга етакчи мақсадлардан бири бўлиб, мактаб ўқувчиларининг тил (лингвистик) ва нутқ ривожланишининг бирлигини таъминлайди, у тил компетенцияси ривожланишининг муваффақиятини белгилайди, чунки унинг ривожланиш даражаси ўқувчиларнинг нутқини ривожланиши билан узвий боғлиқ [1]. Нутқ эса кишининг ташқи дунё билан ўзаро алоқаси сифатида муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, нутқнинг ривожланиши ўқувчининг шахс сифатида шаклланишида ҳам муҳим аҳамиятга эга. С.И.Гальпериннинг фикрига кўра

Ўқувчи нутқи тафаккур қилиш жараёнида шаклланади. Тафаккур эса унинг атрофидаги одамлар билан нутқ орқали мулоқот қилганда ривожланади. Д.Худойберганава ҳам нутқ яратилиши ҳақидаги назарияда тил ва тафаккур муносабати ўта долзарб муаммолардан бири ҳисобланиши, нутқ яратилиши жараёнининг тафаккур билан алоқаси психолингвистикада “нутқ яратилиши модели” деб номланувчи схемаларда акс эттирилиши таъкидлайди. Бу моделларнинг деярли барчасида Л.С.Виготский томонидан илгари сурилган “Фикрдан маънога – маънодан сўзга” деган концепция ўз аксини топганлигини айтиб ўтади. С.Л.Рубинштейн, Д.Б.Эльконин ҳам таълим жараёнининг муҳим шартларидан бири сифатида таълим олувчиларда тафаккурнинг ривожланиши эканлигини таъкидлайдилар. Шу сабабдан ҳам нутққа қўйилаётган талаб азалдан таълим-тарбия тизимида етакчи ўринни эгаллайди. Ўқувчининг нутқи ва тафаккурини ўстириш барча фанларга дахлдор бўлса ҳам, унинг масъулияти, асосан, она тили фани зиммасидадир. Шунинг учун жамият она тили таълими олдида ўқувчи шахсида фикрлаш, ўзгалар фикрини англаш ва фикр маҳсулини оғзаки ва ёзма шаклда саводли баён қила олиш, яъни мустақил ва ижодий тафаккурни ҳамда коммуникатив саводхонликни ривожлантириш вазифасини қўяди [2]. Бугунги тилшунослик олдида қўйиладиган талаб ҳам тилни уни ташкил этувчилари ва улар ўртасидаги муносабатларни ўрганиш асосида эмас, балки тил эгалари хотирасидаги лисоний билимларнинг мулоқот жараёнида актуаллашиш хусусиятларини, яъни лисоний компетенция ва унинг нутқий ифодаси муносабатини ўрганиш асосида тадқиқ этишдир. Ҳозирги ўзбек тилшунослигининг бугунги муаммоси ҳам тил эгалари хотирасида жамланган тил фактларининг мулоқот жараёнидаги татбиқининг (тил компетентлиги), коммуникация жараёнида тилнинг ролини, тил ва тил эгаси муносабатини ўрганишдир [3]. Одатда, ҳар бир халқнинг маданиятлилиқ даражаси унинг саводхонлик даражаси билан белгиланади. Саводхонлик даражаси эса, ўқиш-ёзишни билиш билангина эмас, балки сўзларни қанчалик тўғри ёза олиш ва ўз ўрнида қўллаш олиш қобилиятига эга бўлишида кўринади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Шуни таъкидлаб ўтиш жоизки, ҳар қандай тилни ўргатиш ва ўрганишда лексик компетенцияни шакллантириш жараёни катта қизиқиш ҳамда аҳамият касб этиб қўшимча изланишларни талаб қилади. Лексик компетенция коммуникатив компетенциянинг таркибий қисмларидан бўлиб, мулоқот қилиш учун мавзулар, нутқ ҳаракатларида суҳбатдошларнинг ижтимоий ва

коммуникатив роли, мавзу турлари ва уларни тузиш учун зарур лингвистик элементларнинг ўзлаштирилишини назарда тутди.

Лексик компетенция сўз маъносининг тузилишини аниқлай олиш, сўздаги маънони англай олиш ва лексик билимлар, малакалар, кўникмаларга асосланган билимлар назарда тутилади. Шунингдек Е.Н.Соловованинг фикрича “Лексик компетенция бу лексик элементларни ўзида жамлаган тилнинг луғат таркибини билиш ва уни нутқда ишлата олиш қобилиятидир. Лексик компетенцияни етарли даражада ўзлаштириш нутқ фаолиятининг барча турларида ижобий самара беради.

Лексик бирликни ўзлаштириш бир неча бўлимлардан ташкил топади:

- а) эшитганда лексик бирликни тушуниш ва уни талаффуз эта олиш,
- б) лексик бирликни ёзув шаклини билиш ва уни ёза олиш,
- в) лексик бирликни морфологиясини тўғри ифодалай билиш,
- г) лексик бирликни бир неча маъноларини билиш ва контекстга мослаб тўғри ишлата олиш,
- д) грамматик категориясини билиш,
- е) лексик бирликни синтактик туза олишини билиш,
- ж) лексик бирликни маъно (синонимлар, омонимлар) жиҳатдан ишлата олиш,
- з) лексик бирликларни бирикмаларда ишлата олиш,
- и) тез-тез ишлатилиш соҳасини билиш,
- к) лексик бирлик қандай маданий ахборотни етказа олаётганлигини билиш,
- л) бошқа тилларда унинг эквивалентларини билиш.

Лексик компетенция – сўзларнинг лексик маъноларини англаувчи, уларнинг шаклланиш қонуниятларини кенг доирада бирлаштирган, лексикология бўлимига киритилган тил тизимининг таркибий қисми ҳисобланиб, лексикология бўйича олинган билим, кўникма, малакаларни қўллаш қобилиятидир.

Ўқувчиларда лексик компетенцияларни замонавий технологиялар асосида ривожлантириш босқичлари:

Биринчи босқич – мулоқот ва ўз-ўзини ифода этишга тайёрлик ҳамда ҳамкорликка эҳтиёж ҳисобланади. Ушбу босқичда лексик компетенцияларга йўналтирилган шахсий тажрибани, эҳтиёжни, қоидаларни тушуниш амалга оширилади. Тил тизимининг бирликлари, маъноларини онгли равишда ўргатиш масаласига алоҳида эътибор қаратилади.

Иккинчи босқич – фаолиятли ривожлантирувчи босқич бўлиб, у ўқувчиларни ўқув ва лексик компетенцияларни эгаллашга асосланган.

Фаолият - инсонгагина хос, онг билан бошқариладиган эҳтиёжлар туфайли пайдо бўладиган ва ташқи олам билан кишининг ўз-ўзини билишга, уни қайта кўришга йўналтирилган фаоллигидир. Билимлар фаолият жараёнида мустахкамланади, шу сабабли ўқувчиларда назарий билимларни амалда қўллай олиш иқтидорини тарбиялаш лозим. Зеро амалиётга тадбиқ этилмаган билимлар тез хотирадан кўтарилади.

Учинчи босқич – ижодий босқич бўлиб, биргаликда гуруҳли ишлаш шароитида ўқувчиларда фаолликни таъминлаб, замонавий технологиялар асосида назарий билимларини амалиётда қўллай олишларига йўналтирилган.

Юқорида изоҳланган босқичларда 5-,6-,7-синф ўқувчиларида лексик компетенцияларни ривожлантириш жараёнида замонавий технологиялардан фойдаланиш орқали фаоллаштириш ҳисобга олинади.

НАТИЖАЛАР

Замонавий технологиялар ёрдамида ўқувчиларда лексик компетенцияларни ривожлантиришга ёрдам берувчи шарт-шароитларни яратишда таълим берувчи ва таълим олувчининг ўзаро муносабати инобатга олинади. Педагогик шарт-шароитларнинг инобатга олиниши ўқувчиларни мустақил ва индивидуал фаолиятга йўналтиришга имкон беради.

Тадқиқот мавзуси бўйича адабиётлар таҳлили, умумий ўрта таълим мактабларида замонавий технологиялардан фойдаланиш асосида тажрибаларни ўрганиш, ўқувчиларида лексик компетенцияларни ривожлантиришнинг биз томонимиздан ишлаб чиқилган кластерли моделини амалга ошириш қуйидаги педагогик шарт-шароитлар эътиборга олинганда самарали бўлади :

– ўқувчиларда лексик компетенцияларни ривожлантиришга йўналтирилган таълим муҳитини яратиш;

– лексик компетенцияларни ривожлантиришда ва аниқлашда нутқнинг ёзма шаклидан ўринли ва унумли фойдаланиш;

– ўқувчиларда лексик компетенцияларни ривожлантириш учун ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро ҳамкорликнинг турли кўринишларини ташкил этиш;

– замонавий технологиялар ва ўқитиш воситалари (электрон таълим ресурслари (АКТ) амалий ўқув қўлланмалар ва бошқалар)дан фойдаланиш орқали лексик компетенцияларни шакллантириш учун мўлжалланган ўқув жараёнининг услубий таъминотини такомиллаштириш;

– замонавий технологияларни қўллаган ҳолда ўқувчиларда шаклланган лексик компетенцияларни амалиётда қўллашни таъминловчи нутқий вазиятларни яратиш.

Она тили таълимида ўқувчиларда лексик компетентликни шакллантиришда қуйидагиларга алоҳида эътибор қаратиш лозим:

ўқувчининг индивидуал хусусиятлари ҳамда қизиқишларига мос равишда уларда лексик компетенцияларни шакллантириш ва ривожлантиришга хизмат қиладиган таълим технологияларини аниқлаш;

ҳар бир ўқувчининг таълимий эҳтиёжларига мос бўлган, унинг индивидуал ривожланиши, онгли равишда нутқ вазиятида лексик билимларидан фойдаланишини ўргатишнинг оптимал йўллари танлаш;

ўқувчиларда лексик компетенцияларни шаклланганлигини баҳолаш ёки уларнинг эришган натижаларини назорат қилиб боришнинг самарали йўллари белгилаш;

ўқувчиларнинг лексикология бўйича олган билимларини онгли равишда ўзлаштирилишига ёрдам берувчи самарали усулларини қўллаш.

Демак, лексик компетентликни ривожлантиришда ўқувчиларнинг ақлий ва шахсий ривожланишини инобатга олиш, ўқувчиларнинг билиш мустақиллигини шакллантиришга қаратилган ўқитиш методларини такомиллаштириш ва уни амалга ошириш шарт-шароитлари алоҳида эътиборга олиниши лозим.

Маълумки, ўзгаришлар даврида таълим тизими ижтимоий жараёнлардан келиб чиққан ҳолда шиддат билан ривожланишни тақозо этади. Таълим орқали жамиятда келажакдаги вазифаларни бажаришга қодир бўлган янги авлод шакллантирилади. Шунининг инобатга олган ҳолда ёш авлоднинг ҳар томонлама пухта билим олиши учун зарур шароит ва имкониятлар яратишга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Барча фанлар қатори она тили бугунги кунда мамлакатимизнинг ҳар бир фуқароси умуммаданиятининг зарурий элементи бўлиб, умумтаълим мактабини тамомлаган ёшлар ижтимоий, иқтисодий ҳамда маданий ҳаётнинг турли жабҳаларида, мулоқот ва муносабатнинг барча турларида ўзбек тилидан эркин, самарали, ўринли фойдалана олиш, унинг чексиз имкониятларидан тўлақонли баҳраманд бўлиш каби зарурий билим, кўникма ҳамда малакаларга эга бўлишлари керак. Бунинг учун эса, она тили машғулотларини шу талаблар асосида ташкил этилишига эътибор қаратилмоғи зарур.

Амалдаги она тили дарсликларини яратишда ўқувчиларга грамматик қоидаларни ёдлатишдан кўра, уларда ижодий тафаккурни шакллантириш,

дарсларни ўқувчиларнинг нутқий малакасини оширишга қаратиш мақсад қилиб олинди ҳамда тил таълими олдида қуйидаги вазифалар қўйилди:

ўқувчи шахсини фикрлашга, ўзгалар фикрини англашга, ўз фикрини оғзаки ҳамда ёзма шаклда саводли баён қила олишга қаратилган нутқий компетенцияни ривожлантириш;

ўқувчиларда лексикологияга оид ўзлаштириладиган билимларни (омоним, синоним, антоним, моносемия, полисемия, диалектизм, архаизм, неологизм) ривожлантириш;

она тилининг кенг имкониятларидан унумли фойдаланган ҳолда тўғри ва раво баён эта олишни ривожлантиришга қаратилган лингвистик компетенцияларни шакллантиришдир. Шунингдек, она тили таълими ўқувчиларнинг Халқаро баҳолаш дастури (Programme for International Student Assessment – PISA) доирасида саводхонлигини ривожлантиришда ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

Умумтаълим мактабларида она тили дарслари бошланғич таълимдан бошлаб ўқитилади ва унда асосий эътибор ўқувчиларнинг саводхонлигини таъминлаш, адабий нутқ меъёрларига риоя қилишни шакллантиришга қаратилади.

Умумий ўрта таълим мактабларининг 5-9-синфларида ўтиладиган она тили фани эса ўқувчиларда:

– ўзбек тилининг фонетикаси, лексикаси ва грамматикасидан нутқнинг оғзаки ва ёзма шаклларида тўғри фойдаланиш учун зарур бўлган илмий - амалий маълумотлар беришни;

– ўзбек тилида тўғри талаффуз, имло ва пунктуациясининг асосий қоидаларини ўзлаштириб олишни;

– турли луғатлардан тўғри фойдалана олишни;

– ўқувчиларда ўз фикрини нутқ вазиятига мос равишда ифода қилиш кўникмаларини ҳосил қилишни;

– муайян бир хабарни ёки маълумотни турли шаклларда бера олиш йўллари;

– кундалик ҳаёт учун зарур бўлган иш қўғозларини юритиш кўникмаларини;

– ёш ва билим даражасига мос бўлган бадиий, илмий, сиёсий асарларни ўрганиб, улар ҳақидаги фикр-мулоҳазасини, шахсий муносабатини оғзаки ва ёзма шаклларда тўғри баён эта олиш кўникмасини;

– ташқи дунёни ўрганиш ва уни тил бирликларида ифодалашда, жамият аъзолари орасида мулоқот ўрнатишда она тилининг беқиёс имкониятини ҳис

этиш учун зарур бўлган назарий маълумот ва амалий кўникмалар беришни асосий вазифа қилиб олади.

МУҲОКАМА

Она тилига оид билимларни беришда тилнинг кўп сатҳли, чексиз имкониятли, мураккаб тизим сифатидаги талқинига таянилади. Шунинг учун она тили дарслиги она тили қурилишининг энг асосий бирликлари ва ҳодисалари билан таништирувчи “Муқаддима” ва “Изчил курс” каби икки қисмни ўз ичига олади. Тилнинг грамматик ҳодисаларини, сатҳ бирликларини алоқадорликда тизимли ўрганиш, айнан бир хил фикрни турли хил йўсинда ифодалаш имкониятлари борлигини, ҳар бир имкониятнинг ўзига хослигини ўқувчиларга сингдиришда буларнинг аҳамияти катта. Дастур ва дарсликларнинг дидактик асоси: ўқувчига таълим жараёнининг фаол иштирокчиси; ўқитувчига ўқувчининг ўрганиш фаолиятининг бошқарувчиси; дарсликка (ўқув топшириқларига) ўқувчи ва ўқитувчи фаолиятларини ўзаро боғловчи восита сифатида ёндашишдан иборатдир.

Бугунги кунда таълим олувчиларни баркамол авлод сифатида тарбиялаш бош мақсадга айланган бир пайтда уларда нутқий кўникмаларни шакллантириш ҳар қачонгидан ҳам муҳим вазифа бўлиб қолди. Чунки тил кишилар ўртасида муҳим алоқа воситаси бўлиши билан бирга, олам ҳақидаги билимларни тўпловчи ва келажак авлодга етказувчи восита ҳамдир. Биринчи вазифаси коммуникатив, иккинчиси эса когнитив вазифадир. Шу кунга қадар тилнинг коммуникатив вазифаси ва унинг ички тузилишини ўрганишга эътибор қаратилган бўлса, XXI асрдан тилнинг ички тузилишини когнитив вазифа билан биргаликда ўрганишга эътибор берилди бошланди. Чунки маълум бир тилни билиш учун луғат таркибини, сўзларни бир-бирига боғлаш қоидаларини ўзлаштиришгина кифоя қилмайди. Бундан ташқари нутқий жараёнда улардан ўринли ва мақсадга мувофиқ фойдаланиш кўникмасига эга бўлиш ҳам муҳимдир. Бунда барча тил бўлимлари қатори лексикологиянинг ҳам ўз ўрни бор.

ХУЛОСА

Биламизки лексикология, тилшуносликнинг [тил луғат](#) таркиби, яъни муайян бир тилнинг лексикасини ўрганувчи бўлими. Лексикология ҳар бир сўзни ёлғиз ҳолда эмас, балки бошқа сўзлар билан боғлиқ ҳолда ўрганади. Лексикология тилшуносликнинг лексикография, фразеология, [семасиология](#) ёки семантика, этимология, [стилистика](#) ҳамда [сўз ясалиши](#) ҳақидаги [таълимот](#) каби соҳалари билан чамбарчас боғлиқ. Лексикологиянинг асосий муаммоларидан бири сўзнинг мустақил тил бирлиги сифатида мавжудлиги масаласидир.

Лексикологияда сўзларнинг маъно жиҳатдан ўзаро боғланган, яъни моносемия, полисемия, синонимия, антонимия, сўз маъноларининг эркин ёки боғлиқ ҳолда бўлиши каби масалалари ҳам ўрганилади. Лексика муайян бир тизим сифатида кўрилганда, сўз маънолари ва тушунчаларнинг ўзаро боғлиқ ҳолда бўлиши кўзда тутилади. Лексикология луғат таркибининг амалда ишлатилиши ва тараққиёти қонуниятларини, сўзларнинг услубий жиҳатдан таснифий тамойилларини ишлаб чиқади. Шунингдек, сўзлашув ва адабий тилларда фойдаланиш меъёрларини, профессионализм, диалектизм, архаизм, неологизм, лексикалашган сўз бирикмаларини меъёрлаштириш каби масалаларни таҳлил этади ҳамда булар ҳақида муайян хулосалар чиқаради.

Она тилини ўқитишнинг ҳозирги босқичида ўқув мақсадлари, унинг мазмуни, билим даражаси, кўникмалари лингвистик ва коммуникатив компетенциялар орқали аниқланади. Ўқувчининг билим савиясига қўйиладиган талаб эса, таълим жараёни олдига қўйиладиган ижтимоий талаб билан белгиланади. Шу мақсадга кўра она тили таълимининг мазмуни ўқувчининг фикрлаш салоҳиятини, ақлий ривожланишини, мантикий тафаккурини ўстириш ҳамда ўқувчиларнинг ўз-ўзини, моддий борлиқни тилнинг ифода воситалари ёрдамида англашга ҳамда ўз фикри ва ҳис-туйғуларини она тилининг кенг имкониятлари доирасида баён эта олишини таъминлаш вазифаларини ҳал этишга йўналтирилади.

Умумтаълим мактабларидаги она тили ўқитиш тизимини инновацион ахборот технологиялар асосида модернизациялаштириш, она тили таълимини ДТС талаблари даражасига етказиш зарурияти ўзбек тили ўқитиш методикаси олдига бир қанча долзарб вазифаларни юклайди. Булар:

1. Она тили дарсликларида тилни тизимли ўрганиш, мустақил фикр маҳсулини изчил, тўғри, ўринли ифодалашни талаб қилувчи машқ-топшириқлар миқдорини кўпайтириш.

2. Берилган муаммоли масалаларни ўрганиш ва унинг тўғри ечимини топишда эгалланган БКМлар интеграцияси қонуниятларига асосланиш, матн яратиш жараёнида эвристик (изланиш ва кашф қилиш) фаолиятининг устуворлигини таъминлаш.

3. Она тили таълими мазмунини такомиллаштириш, ўқувчиларни ўз нутқий – интеллектуал қобилиятини намоиш қилишга одатлантириш, кичик матнлар яратишга қаратилган уринишларни кўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш.

4. Ўқувчида фикрни мустақил баён этиш малакасини ҳосил қилиш, нутқий БКМларни тил сатҳлариаро ва фанлараро алоқадорлик тамойиллари асосида такомиллаштириш.

5. Ўқувчига нутқий маданият (оғзаки ва ёзма нутқ жараёнида сўз ва ибораларни тўғри танлаш, уни нутқий вазият тақозосига кўра ўринли ишлатиш) кўникмаларини сингдириш.

Бу санаб ўтилган вазифалар лексик компетенция жараёни билан боғлиқ ҳолатга жиддий эътибор қаратиш зарурлигини тақозо этади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Эльконин Д. Б. Избранные психологические труды. – М.: Педагогика, 1989. – 560 с.
2. Турдиев Н.Ш., Асадов Ю.М., Акбарова С.Н., Темиров Д.Ш. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. Т.Н.Қори Ниёзий номидаги Ўзбекистон педагогика фанлари илмий-тадқиқот институти, Тошкент.: 2015. – Б. 31.
3. Набиева Д. Холматова Г. Замонавий тилшуносликнинг муаммолари // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. 2016, – Б. 46.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 293.
5. Иноятов У., Ходжаев Б. Умумтаълимий компетенцияларни лойиҳалаштиришнинг концептуал асослари // Халқ таълими илмий-методик журнали, 2016.–№ 2. – Б. 8.
6. Муслимов. Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Тошкент, 2015. – 120 бет.
7. Маҳмудов А.Х. Узлуксиз таълим жараёнига компетентлик ёндашувини жорий қилишнинг дидактик асослари // Узлуксиз таълим, 2012. № 4. – Б. 8-12.
8. Собиров А. Узлуксиз таълимда тил компетенцияси // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 87.

IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO‘NG ANGLIYDA ARXIV FAOLIYATI

Salomova Lutfiya Iskandar qizi

O‘zbekiston Milliy universiteti

*Tarix fakulteti “Manbashunoslik va
arxivshunoslik” kafedrasi o‘qituvchisi*

E-mail: salomovalutfiya95@gmail.com

Salomova Gulnoza Iskandarovna

Denov tumani № 22- sonli

maktab o‘qituvchisi.

E-mail: mohirbekiskandarov5@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Angliyadagi arxiv ishi faoliyati, Angliyada arxiv ishi sohasidagi muhim va qiziqarli voqiyalar haqida qisqacha ma'lumotlar, Milliy arxivlar reestri, Arxiv inspektorlari, Viloyat arxivi - mahalliy boshqaruvga mas'ul bo'lgan asosiy agentlik, tuman Kengashiga bo'ysunuvchi mustaqil agentlik. Viloyat arxivlari tarkibidagi uyushmalarning iltimosiga binoan okrug kengashlarining hujjatli materiallari, tinchlik sudlari konventsiyalari, shahar kengashlari va boshqa mahalliy muassasalar, korxonalar hujjatlar bilan ishlash holatlari o'rganilgan*

Kalit so‘zlar. *Angliya arxivi, hujjatlar, hukumat, fond, ro'yxat, ikkinchi jahon urushi, Davlat, tarix, Salomova.*

Annotation. *This article contains brief information about archival work activities in England after World War II, about important and interesting vagaries in the field of archival work in England, The Register of National Archives, archival inspectors, the regional archive - the main agency in charge of local management, an independent agency subordinate to the District Council. At the request of the associations within the Regional Archives, documentary materials of the county councils, peace court conventions, city councils and other local institutions, enterprises are studied cases of working with documents.*

Keywords:

Archives of England, documents, government, Foundation, list, World War II, state, history, Salomova.

KIRISH: Ikkinchi Jahon Urushidan keyin Angliyadagi arxiv ishi boshqa mamlakatlardagidek muammolarga duch keldi. Hujjatli manbalarning Angliyadagi urush paytida yo‘qotishlari juda katta edi, lekin ular markazdagi va sohadagi mavjud muassasalar arxiv hujjatlariga ta'sir ko'rsatdi, davlat arxivlari esa to'liq saqlanib qoldi va o'z faoliyatini to'xtatmadi. Yo‘qotishlarga qaramay, idoraviy arxivlar to'lib toshgan va juda katta miqdordagi hujjatlar Davlat arxiviga topshirilishi kerak edi. Binolar zaxirasi bo'lmaganligi sababli, Ashbrijda (London yaqinida) arxivga moslashtirilgan va 150 000 ming futlik javonlar bilan jihozlangan yangi hujjatlarni saqlash uchun keng bino olindi.

1944-yilda Davlat arxivi va mavjud muassasalar o'rtasidagi hamkorlik rejasi qabul qilindi. Davlatning bir qismi sifatida arxivda bo'limlarga hujjatli materiallarini tartibga solish bo'yicha maslahatlar berishi va materiallarni davlat arxiviga topshirilishini tartibga solishi kerak bo'lgan muassasalar bilan aloqa bo'yicha maxsus bo'lim tashkil etildi. Ishlayotgan tashkilotlar o'z-o'zidan arxivlarini tartibga solishni ta'minlay olmaydilar va ularni davlat arxivlariga topshirishga tayyorlay olmaydilar. Keyin chalik Angliyada arxiv uchun oraliq omborlar yaratildi, ushbu omborlarda turli muassasalarning hujjatlari saqlash muddatiga qarab saralanadi va tartibga solinadi, shundan so'ng doimiy saqlash muddati bo'lgan materiallar shtatning qo'shimcha saqlash omborlariga o'tkaziladi. Ular "Limbo" nomini oldilar. Bu oraliq saqlash joylari uchun 6 ta keng harbiy boshpanalar va artilleriya zavodining bir qismi (tahminan 75 kmga yaqin tokchalar) ajratilgan.

1950-yillarning o'rtalarida faoliyat ko'rsatgan "D.Grigg komissiyasi"ning faoliyati Angliya arxivlari uchun alohida ahamiyatga ega edi. Parlament tomonidan Shtab-tafsiyalari yozuvlarni tashkil etish va saqlashni o'rganish vakolatiga ega. Komissiya ish yuritishni tashkil etish va shtabda arxiv ishlarini tashkil etishni takomillashtirish yuzasidan qator tavsiyalar berdi. Saqlanishi kerak bo'lmagan materiallarni ajratish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Yo'q qilish uchun materiallarni tanlash davlat bilan kelishilgan holda vazirliklar tomonidan tuzilgan "ro'yxatlar" asosida amalga oshirilgan oldingi tartib bekor qilindi. Saqlash va yo'q qilish uchun materiallarni tanlash bevosita vazirlik arxivi boshlig'i ishtirokida ma'muriyat tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur faoliyat Davlat huzuridagi Idoraviy arxivlarni boshqarish boshqarmasi tomonidan nazorat qilinadi va uslubiy yordam beradi. Arxiv bir necha inspektorlardan iborat. Komissiya hisobotida alohida

materiallar guruhlariga nisbatan batafsil tanlov tartibi taklif qilindi. Davlat rahbariyati tomonida 1958-yilda arxivlar to'g'risida yangi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun Angliyada arxiv ishini zamonaviy asosda rivojlantirishga hissa qo'shishi kerak bo'lgan muhim qonunchilik akti edi. Biroq u arxiv muassasalarining davlat apparatidagi o'rni masalasida davlat materiallarining mavjud bo'lish muddati bo'yicha konservatizm xususiyatlaridan xoli emas edi. Davlat hujjatli materiallari tarkibida arxiv bor edi jismoniy o'zgarishlar. U Tashqi ishlar vazirligi, harbiy va dengiz vazirliklarining ishlaydigan tarkibiy bo'linmalari, Moliya vazirligi va boshqalarning materiallari bilan to'ldirildi. Tugatilgan koloniyalar vazirligining butun arxivi unga topshirildi. Ikkinchi Jahon urushi davrida faoliyat yuritgan institutlarning ko'plab mablag'larini oldi. Natijada, davlat materiallari o'rtasida xronologik farq yo'q edi. Bo'limlar arxivlari arxiv fondlarining ko'p qismi 50 -yillarni qo'lga kiritdi. XX asr So'nggi 30 yil ichida materiallar tadqiqotchilarga berilmagan va qisman shahar tashqarisida qo'shimcha binolarda joylashgan bo'lsa -da, mamlakat tarixini o'rganish uchun arxivning qiymati ancha oshdi.

Arxiv o'quv zali, mikrofilm va nashriyot orqali hujjatli materiallardan foydalanishni yanada takomillashtirish va tartibga solishga qaratilgan edi. O'quv zali rekonstruksiya qilindi, urushdan keyin kitobxonlar soni tez o'sdi: Masalan: 1946 yilda 261 tashrif buyurgan bo'lsa, 1950-yilda bu ko'rsatgich 646 yetdi, 1962 yilda esa 37 ming, 1968 yilda 84 mingga yetganini ko'rish mumkin. Suratga olish va mikrofilmga buyurtmalar soni yanada tez o'sdi. Yil davomida tayyorlangan nusxalar soni 1946-yilda 15 ming kadri, 1950-yilda esa 317 ming nusxani tashkil etdi. Arxivning nashriyot faoliyati hanuzgacha Tarixiy qo'lyozmalar komissiyasi orqali amalga oshirilmoqda. 1947-yilda maxsus tuzilgan maslahat komissiyasi ishtirokida davlat nashrlari rejasi tuzildi. Arxiv uchun tuzilgan bu rejada oldingi an'analardan ma'lum darajada chetga chiqishni ko'rsatuvchi bir qancha muhim jihatlar bor edi: birinchi navbatda, arxiv mazmunini ochib beradigan asosiy turdagi va bino sifatida taqvimlardan voz kechish, qisqacha tavsif va indeksni chop etishga o'tish, tayyorgarlik. hujjatlarni nashr etish mahalliy tashkilotlar bilan kelishilgan holda yangi qo'llanmani nashr etishni nazarda tutgan. Dastlab u bir qator muammolar sifatida rejalashtirilgan edi. 1949-yilda nashr etilgan birinchi sonda davlatning tashkil topishi va faoliyati tarixi tasvirlangan. Arxiv va uning zamonaviy tashkilotiga, mos yozuvlar apparati holati va boshqalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Ammo ular bunday nashrni davom ettirishdan bosh tortishdi, chunki bunga ko'p vaqt talab etardi. 50-yillarda ikki jildli qo'llanma nashr etildi, bu qo'llanmada qo'tgan o'n yilliklarda olingan materiallar kiritilgan.

Boshqa Evropa mamlakatlari arxivlari kabi, Angliya davlat arxivida ham ko'rgazma va muzey ishlariga e'tibor beradi. Shtat Urushdan so'ng, arxiv millatlashtirilgan korxonalar arxivlari bilan shug'ullanishi kerak edi, chunki tog' -kon sanoati va transport sohasidagi korxonalarni qisman milliyashtirish natijasida ularning texnik arxivlari davlat tasarrufida edi. Davlatning bir qismi sifatida. Milliyashtirilgan korxonalarining hujjatlari ustidan nazorat byurosi tomonidan arxiv tuzildi. Davlat xizmatchilari 1946-yilda o'z faoliyatini qayta boshlagan Korxonalar arxivlarini himoya qilish kengashi yordami bilan Korxonalar arxivlarini himoya qilish kengashi milliyashtirilgan korxonalar arxivlarini ekspertizadan o'tkazdi, ularning materiallari indeksini tuzdi, eng qadimiy va eng yaxsh mikrofilmlilik qiziqarli hujjatlar arxiv materiallari edi. Amaliy ahamiyatini yo'qotgan, arxiv materiallarining mahalliy arxiv yoki kutubxonalariga saqlanishini ta'minlash choralari ko'rildi.

Urushdan keyingi Angliyada arxiv ishi sohasidagi muhim va qiziqarli voqiyalar haqida qisqacha ma'lumotlar Milliy arxivlar reestrini tashkil etdi. Uning maqsadi-kapitalistik mamlakatlar sharoitida deyarli shtat ko'zidan chetda qolgan Angliyaning barcha arxivlari, asosan nodavlat arxivlari haqida ma'lumot to'plash. arxiv organlari. Garchi ilgari Tarixiy qo'lyozmalar komissiyasi nodavlat arxivlarni aniqlash va ularni himoya qilish choralari izlash bilan shug'ullangan bo'lsa-da, uning faoliyati samarasiz edi. Ba'zi mahalliy ilmiy jamiyatlar, kutubxonalar, Britaniya arxivchilari jamiyati a'zolari ham shu yo'nalishda harakat qilishdi, lekin bularning barchasi epizodik tarqoq harakatlar edi, shu bilan birga nodavlat arxivlar muammosi tobora keskinlashib bordi.

Nihoyat, 1945-yilda shtat ostida. Angliya arxivlarida 10-12 kishidan iborat maxsus qism shaklida Milliy arxivlar reestri tuzildi. Milliy Ro'yxat Tarixiy Qo'lyozmalar Komissiyasi bilan yaqin aloqada ishlaydi, bu ma'noda uning ishchi apparati edi. Eng qiyin vazifa bu sohada qo'llab-quvvatlashni tashkil etish edi, ularsiz axborot aylanishini yo'lga qo'yish mumkin emas edi. Bu borada Ro'yxatdan o'tishga Britaniya arxivchilari jamiyati katta yordam ko'rsatdi, u o'z safida hujjatlar bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarni birlashtirdi: arxivchilar va okrug kutubxonachilari, kutubxonachilar va universitet professorlari, mahalliy biluvchilar va tarixni sevuvchilar va boshqa olimlar. mahalliy ziyolilar; ular orqali ba'zi mahalliy ilmiy jamiyatlar bilan aloqa o'rnatildi. Shunday qilib, asta -sekin graflik va shaharlarda Registrni tayyorlash bo'yicha mahalliy qo'mitalar tuzildi; ularning faoliyati, birinchi navbatda, o'z hududidagi turli arxivlar - cherkov kengashlari arxivlari, oilaviy va otalik arxivlari, maktablar, kollejlari, mahalliy muassasalar, klublar, jamiyatlar, savdo va sanoat korxonalari, kasalxonalar va xayriya muassasalari haqidagi ma'lumotlarni

to'plashdan iborat edi va ularning joylashuvi, hajmi, tarkibi, xronologik tuzilishi, mavjudligi holati haqida. Bu ma'lumotlar xabarlar yoki hisobotlar ko'rinishida tuziladi va Milliy reestrga yuboriladi.

Yo'l davomida, ma'lumot yig'ish bilan, mahalliy qo'mitalar arxivlarning holatini yaxshilashga har tomonlama yordam ko'rsatadilar, vaziyat tahdid bo'lgan taqdirda, ular bu arxivni tuman arxivlarida, mahalliy muassasalar arxivlarida saqlash uchun bezovta qiladilar. Mahalliy oliy o'quv yurtlari va kollejlarning kutubxonalarini va boshqalar. Bu hujjatli materiallarning tarqalishini yo'q qilmaydi, lekin baribir ularning xavfsizligiga hissa qo'shadi. Ba'zi hollarda qo'mitalarning faoliyati tuman arxivlarini tashkil etishga yordam berdi. Mahalliy qo'mitalarning hisobotlaridan tashqari, ma'lumotlar Milliy reestr xodimlarining tekshiruv tashriflari orqali yig'iladi.

Natijada juda qimmatli materiallar to'plangan. Chop etilgan ma'lumotlarga qaraganda, xususi korxonalar arxivlari haqida ma'lumot to'plash eng qiyin. Shunday qilib, 1956 yil ma'lumotlariga ko'ra, so'rovlar bilan qoplangan arxivlarning atigi 1,8% tijorat va sanoat arxivlariga to'g'ri keladi. Milliy reestrda ma'lumotlar omborlar kataloglari, egalarining ismlari va geografik joylashuvlar ko'rinishida tuziladi. Qayta ishlashning keyingi bosqichi tematik-katalog. Milliy Ro'yxat tuzish jarayonida ham ma'lumot olish uchun unga murojaat qilgan tadqiqotchilarga xizmat ko'rsatuvchi ishlarni bajaradi, ba'zida hujjatli materiallarga kirish masalasida vositachilik qiladi. Ro'yxatdan o'tish kitobini tuzish ishlari davomida, alohida qismlarning joylashuvi va ulanishini, tarqoq mablag'larni aniqlash, bir qancha juda qiziq hujjatlar va kolleksiyalarni ochish mumkin edi, shunda Milliy reestr faoliyati aniqlandi.

Mahalliy arxivlar masalasi Angliyaning boshqa Evropa davlatlari bilan taqqoslaganda, bu mamlakatning qoloqligini ifoda etadigan arxiv ishining tiqilishi bo'lib qolaverdi. Urush paytida katta muassasalar arxivlari katta yo'qotishlar va undan ham og'ir ahvolda bo'lgani uchun bu masalani hal qilish juda dolzarb vazifaga aylandi. Allaqachon 1943-yilda shtat. arxiv, mahalliy arxivlar muammosini o'rganish uchun maxsus qo'mita tuzildi. 1949-yilda qonun loyihasini tuzish uchun tuzilgan bu qo'mita ham, keyingi qo'mita ham markaziy arxivlarni yaratish rejasini tuzdi va Milliy arxiv kengashini tuzishni nazarda tutdi. Umumiy qonun qabul qilinishidan oldin, okrug arxivlarini tashkil etish jarayoni boshlandi va hozirda bunday arxivlar hamma tumanlarda mavjud.

Viloyat arxivi - mahalliy boshqaruvga mas'ul bo'lgan asosiy agentlik sifatida, tuman Kengashiga bo'ysunuvchi mustaqil agentlik. Viloyat arxivlari tarkibida uyushmalarning iltimosiga binoan okrug kengashlarining hujjatli materiallari, tinchlik

sudlari konventsionalari, shahar kengashlari va boshqa mahalliy muassasalar, korxonalar yoki shaxslar to'plangan. Angliyadagi grafliklar arxivlarining joylashuvi Frantsiya va umuman shtatdagi bo'limlar arxivlarining pozitsiyasidan ancha farq qiladi. Markazlashgan boshqaruvga ega bo'lgan mamlakatlar arxivlari. Davlat boshqarmasiga bo'ysunmaydi. Mahalliy hokimiyat organlarining o'z hujjatlarini yuritish va arxivlar tuzish faoliyatining huquqiy asoslari 1962-yil 1-avgustdagi, "Mahalliy hokimiyat arxivlari to'g'risida"gi qonun bilan rasmiylashtirildi.

XULOSA: Ikkinchi Jahon urushi davrida Angliya Bosh arxivining qo'shimcha olgan binolari ham hujjatlar bilan to'lib ketganini ko'rish mumkin. Shu qatorda, davlat muassasalarining yangi davrga oid arxiv hujjatlarini davlat arxivlariga muntazam topshirish ishlarining amalga oshirilishi natijasida arxiv fondlarini to'plamlashtirish ishlari tartibsiz amalga oshirildi. 1923–1924 yillarda V. Juzeppe tomonidan ikki qismdan iborat bo'lgan arxiv yo'lko'rsatgichi tuzildi. Birinchi Jahon urushi bilan aloqador arxiv hujjatlari bo'yicha Angliya hukumati qoniqarli darajada e'tibor qaratmadi. Davlat arxivi, harbiy muassasalar va boshqa muassasalar arxivlari urush davriga oid arxiv hujjatlarining ma'lum bir qisminigina saqlash uchun qabul qildi. Bu davrga oid arxiv hujjatlari ko'p qismi hech qanday ekspertiza ishlari olib borilmasdan omaviy yo'q qilinganini ham ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. <https://helpiks.org/8-75682.html>
2. <https://www.myuniversity.ru.html>
3. <https://naukarus.com/>
4. Salomova, L. I. (2021). Types of documents on the history of the turkestan century kept in the national archives of uzbekistan. *current research journal of history*, 2(11), 73-77.
5. Salomova, L. (2020). The national archive of uzbekistan is a source on the history of the turkestan assr water department. *Theoretical & Applied Science*, (10), 457-460.

TRANSLANGUAGING IN ADULT SECOND LANGUAGE ACQUISITION

Bobir Yuldoshev

Tashkent Institute of Chemical Technology (TICT)

yuldoshevbobur@mail.ru

***Abstract.** In this article, the topic of translanguaging is discussed from different angles, a comparison of the ideas by different scholars is provided as well as the similarities and differences between those ideas are analyzed.*

***Keywords:** translanguaging, L1, code-switching, cross-linguistic transfer, target language.*

INTRODUCTION

Over the last several decades, the importance of the first language in adult second or foreign language schools has shifted dramatically. Many people support L1 usage, seeing it as beneficial and helping language development, while others oppose it, describing it as a barrier to language teaching and learning. Translanguaging, which insists on viewing languages as a single unitary system rather than the traditional linguistic perception of L1 versus L2, has recently added a new dimension to this long-standing debate of using L1 in teaching/learning L2 to adult second language learners.

LITERATURE ANALYSIS AND METHODOLOGY

Translingualism is the use of one's language as a means of integrated communication. In 1980, the word "trawsieithu" was introduced by Welsh teacher Cen Williams to indicate the methodical integration of two languages in a single class. Baker (2001) translated this term into "translanguaging" to characterize the deliberate switching of input and output languages within a single educational environment. It has three morphemes: the prefix "trans" indicates "transcending" that is, moving beyond; "language" implies a communication tool, and 'ing' conveys that the phrase refers to a dynamic performance rather than a static system. According to Garcia (2009), translanguaging is "the process of bilinguals accessing distinct linguistic aspects or diverse forms of what are termed as autonomous languages to optimize communication potential." Similarly, G. Lewis et al. (2012), stated that translanguaging has roots in Vygotsky's Zone of Proximal Development (ZPD), which means that learners' knowledge can be increased based on past information and that the interdependence of several languages allows the cross-linguistic transfer. All adult

language learners bring past knowledge and experiences to the language acquisition process. Teachers must devise techniques to incorporate the learner's life experiences into classroom teaching, given the new emphasis on learner-centeredness in the classroom. Auerbach (1993) supported the use of L1 by describing it as a tool for validating the learner's lived experiences. Because it is impossible to acquire new information without connecting it to what the learner currently knows, the existing knowledge of a learner should be effectively exploited to develop new knowledge. However, according to Richards and Rogers (2012) for many years, it was thought that using L1 in L2 classes was a "forbidden fruit" that impacted the L2 learning process. Many ESL/EFL educators feel that the target language should be a classroom.

RESULTS

According to Garcia (2009), translanguaging was first utilized to refer to code-switching. But, later on, the two notions were differentiated in theory and practice. In theory, translanguaging assumes a heteroglossic perspective, in which bilinguals use their whole language range to construct meaning. The term "code-switching" conveys a monoglossic viewpoint, with bilinguals flipping between two language systems, based on Garcia & Wei (2004). They also stated that translanguaging is also emphasized in Cummin's (1979) theory of 'interdependence,' which claims that a learner's degree of competency in L2 has an impact on their progress in L1. According to Alhawary (2018) Code-switching, on the other hand, is seen to be the result of L1 interference, and is generally thought to be detrimental to second language teaching and learning. Translanguaging has become a pedagogical technique for language education in practice. Code-switching, on the other hand, refers to the switching of languages in a variety of situations according to Nagy (2017), which is "seldom institutionally supported or pedagogically backed" stated by Creese & Blackledge (2010, p. 105). They also claimed that when used in the classroom, code-switching has been criticized for being "embarrassing," "dilemma-filled," "guilty sentiments," and "squandering our multilingual resources" since the languages "contaminate" one another (2010, p. 112). As reported by Lewis (2012, p. 649) Translanguaging is thought to give flexibility to pedagogic classroom techniques, allowing ideas to be more readily transmitted, comprehended, and retold, according to the study. He also stated that the word "translanguaging" has been expanded to encompass how bilinguals make sense of their environments by deploying the two languages in a bilingual community "if interpreted correctly and practiced in schools, as a technique to enhance pupils' cognitive, linguistic, and literacy capacities." (2012, p. 647). Likewise, Garcia (2011)

distinguishes between code code-switching, translation, and translanguaging, noting that, unlike code-switching and translation, translanguaging is "part of the meta meta-discursive regimes that students in the twenty-first century must execute" (p. 147). According to him, with this background in mind, bilingual instructors and students should view their natural translanguaging practice as a beneficial (rather than a humiliating) tool that may be used as a successful teaching approach in bilingual classrooms (2009a).

DISCUSSION

While some researchers advocate for the use of L1 in adult L2 classes, others argue against it. Teaching English in an ESL environment has been shifting between two extremes. On the one hand, traditional teaching approaches, such as Grammar Translation, emphasize learners' L1 as a facilitator in learning L2. On the other hand, according to Harmer (2001), some teaching techniques (such as the Audio-lingual method) argue for complete avoidance of utilizing L1 in an ESL classroom, stating that it would result in bad habit formation and may impair target language learning. Krashen's input hypothesis is the main reason for an "English exclusively" classroom. The most effective strategy to develop L2 is to expose learners to a wide range of stimuli, according to Krashen. He claims that essential linguistic information will be delivered naturally if a student is given enough knowledge. Learners should be provided thorough input in their L2 to get the most out of it. As a result, supplying instructions in L1 reduces the quantity of L2 output, potentially limiting maximum L2 acquisition options.

Although most modern scholars agreed with Krashen's concept, other researchers such as Krashen & Terrel (1983) and Chambers (1991) claimed that L1 should be used with low-level language learners. For many years, the "English only" method has encountered many obstacles, including a shortage of qualified teachers, culturally relevant materials, and unmotivated students, and as a result, researchers have attempted to advocate for the use of L1 in L2 classrooms, particularly in FL classrooms. In general, students often feel uncomfortable in the presence of an unknown L2 in the classroom. Brooks-Lewis acknowledges that attending a new classroom may be unpleasant for adult language learners because they are no longer a part of their activities. Instead, they should obey and follow the teacher's directions. As a result, it is evident that adult language learners require a school setting that is secure, sympathetic to their predicament, and accepting of their many characters. In response to this, both Brooks-Lewis and Auerbach argue that integrating L1 into the classroom

can lessen the anxiety produced by the L2-only approach. Furthermore, studies show that pupils are more likely to identify with a teacher who communicates with them in their language. Cummins in his Linguistic Interdependence Hypothesis claimed that a student's L2 ability is connected to their L1 skill, meaning that the more proficient a learner is in their L1, the more likely she or he is to improve in L2. The two ideas above suggested that if students are allowed to use their L1 in L2 learning they will benefit from it to some degree. For various goals, certain scientific studies argued for the use of L1 in L2 classes. Yavuz (2012) suggests numerous ways to include L1 in L2 lessons. According to him, L2 teachers can utilize L1 to stimulate language, verify understanding, deliver sophisticated teaching to beginners, check for sense, test, and build circumlocution tactics. Using L1 in L2 classes, according to Levine (2012), can help students operate better, clarify content, arrange and organize communication, encourage interpersonal dynamics, reduce fear, and affirm learner identity. According to Zulfikar (2019), learners can use L1 to explain or clarify ideas, tasks, assignments, directions, or activities. He thinks L1 can help students collaborate more effectively and save time in the classroom. Shuchi and Islam (2016) investigate students' and teachers' perspectives on using the Mother tongue in L2 classrooms in Saudi Arabia and Bangladesh, finding that using L1 is useful for explaining difficult concepts, comparing L1 and L2, clarifying instructions to low-level learners, reducing anxiety, and building rapport with learners. L1 should be used sparingly, according to all of the studies. To summarize, the bulk of research studies indicate that L1 be used to set up an activity, go through directions, assign homework, sustain decline, and provide comprehensive explanations of issues such as grammar to lower-level learners to alleviate anxiety and enhance learning.

SUMMARY

The literature review shed light on the intended use of translanguaging in an adult ESL classroom, demonstrating its efficacy in the comprehending and processing of information on many levels while having a minimal influence on language proficiency. Translanguaging pushes adult ESL learners on several levels of thinking until they "digest" the knowledge and respond to questions based on comprehension rather than just repeating information. Translanguaging might be a fantastic benefit to adult ESL classes and programs if done judiciously in the classroom and at times supervised by the teacher. However, this assessment of the literature shows that more study into the scope, obstacles, and advantages of translanguaging in adult ESL/EFL courses is needed. Translanguaging pedagogy is still in its early stages of development,

and both instructors and students lack sufficient understanding of the types of tasks and activities that may be conducted in the classroom. As a result, it is expected that shifting paradigms and adopting new approaches in adult English Language Teaching would take some time.

REFERENCES

1. Creese, A., & Blackledge, A. (2010). Translanguaging in the bilingual classroom: A pedagogy learning and teaching. *The Modern Language Journal*, 94, 103-115. [https://doi.org/10.1111/j.1540-1111.2010.01111.x](https://doi.org/10.1111/j.1540-1111/j.1540-1111.2010.01111.x)
2. Garcia, O. & Wei, L. (2014). *Translanguaging: Language, Bilingualism, and Education*. New York, NY: Palgrave MacMillan, 162, 366-369. <https://doi.org/10.1080/15235882.2014.965361>
3. Hasan, M., Shuchi, I. J., & Islam, S. (2020). Translanguaging As An Instructional Strategy In Adult Esl Classrooms. *ELT-Echo*, Volume 5(Number 2), 1 – 16.
4. Lewis, G. & Baker, C. (2012). Translanguaging: origins and development from school to street and beyond. *Educational Research and Evaluation*, 18(7), 641-654. <https://doi.org/10.1080/13803611.2012.718488>
5. Makulloluwa, E. (2016). Benefits of Mother Tongue in the Adult ESL Classroom. *Literacy Information and Computer Education Journal*, Volume 7(Issue 3), 1 – 7. Academia.edu
6. Nagy, N. (2017). Cross-Cultural Approaches: *Comparing Heritage Languages in Toronto*. *Variation*, 23(2). <http://repository.upenn.edu/pwpl/vol23/iss2/1>
7. Sulaiman, R. S., & Taqi, H. A. (2020). Translanguaging as an ESL Learning Strategy: A Case Study in Kuwait. *International Journal of Higher Education*, Vol. 9(No. 6), 1 –10. <http://ijhe.sciedupress.com>
8. Zulfikar, Z. (2019). Rethinking the Use Of L1 in L2 Classroom. *Englisia Journal*, 6(1), 42-51. doi:10.22373/ej.v6i1.2514

ABDURAHMON JOMIYNING “BAHORISTON” ASARIDA ALISHER NAVOIY OBRAZI

Sunnatova Diyora Furqat qizi Alisher

*Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va
adabiyoti universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy obrazi Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston” asari misolida ko‘rib chiqiladi. “Bahoriston” haqida qisqa ma’lumot va uning tazkira asarlar sirasiga kirishi to‘g‘risida ayrim fikrlar yoritiladi. Bundan tashqari Navoiy obrazi uchragan bir qator asarlardan parchalar berilib, undagi fikrlarga bobomizning o‘z asarlaridan misollar va dalillar keltirilib, tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *tazkira, Bahoriston, zamima tazkira, turkiy va forsiy g‘azallar, ravza, masnaviy, “Makorim ul-axloq”.*

Abstract: *In this article, the character of Alisher Navoi is considered in the example of the work “Bahoristan” by Abdurrahman Jami. Brief information about “Bahoristan” and some thoughts about its entry into the series of works of art will be covered. In addition, excerpts from a number of works in which the image of Navoi is found are given, and examples and arguments from our grandfather's own works are given and analyzed.*

Key words: *tazkira, Baharistan, zamima tazkira, Turkish and Persian ghazals, ravza, masnavi, “Makorim ul-akhlaq”.*

KIRISH

Turkiy adabiyotning zabardast vakili, yo‘lboshchisi bo‘lmish Mir Alisher Navoiyning asarlari necha asrlar o‘tsa hamki, adabiyot va so‘z ixlosmandlariga bezavol yetib kelmoqda. Navoiy asarlarini o‘rganganimiz sari undagi so‘z qudratiga takror amin bo‘lamiz va yangidan yangi qirralarni kashf eta boramiz. Mutafakkirning asarlari zamon yoki makon tanlamaydi. Va aynan shuning uchun ham shoirning ijodiyotiga bo‘lgan ehtiyojimiz vaqt o‘tgan sari ortsa ortadiki, hech kamaymaydi. O‘rganilish jarayonida yangi anglamlarni hosil qilamiz. Alisher Navoiy ijodining nafaqat hozirgi davr adabiyot namoyandalari tomonidan balki bobomiz bilan zamondosh bo‘lgan shoir-yozuvchilar tomonidan tadqiq qilinishi yoki e’tirof etilishi Navoiy asarlariga bo‘lgan talabning yuqoriligi va keng ahamiyat kasb etganligidan dalolat. Shoirning asarlari o‘sha davr ijodkorlari uchun ham kattagina bir mavzuga asos bo‘la olgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Biz murojaat etmoqchi bo'lgan asar esa adabiyot olamining yirik vakillaridan biri bo'lmish shoir Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston"idir. Sa'diy Sheroziyning "Guliston"i ta'sirida yaratilgan "Bahoriston" asari 8 ravza (bob) dan iborat bo'lib, zamonlar osha yashab kelayotgan abadiy ibratlar, hikmatlarni o'z ichiga jamlab, iymonga, e'tiqodga, poklikka, adolatga, muhabbatga chorlayotgani, hikoyatlari hanuz mutolaa qiluvchiga ulkan saodatli ruhiyat bag'ishlayotgani bilan bebahodir. Asarda ko'plab tasavvuf donishmandlari va mutafakkirlari haqida ma'lumotlar keltiriladi, xususan, yettinchi ravzada buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyga to'xtalib o'tiladi va uning komil axloqi ijodidan ham yuksakroq ekanligi ta'kidlanadi. [<https://en.oxforddictionaries.com/word-of-the-year/word-of-the-year-2016>].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Dastlabki olti ravzasi hikoyat va hikmatlar asosida bayon qilingan bo'lsa, yuqorida qayd etilganidek, asarning yettinchi ravzasi she'r va shoirlik xususida bo'lib, unda bir necha olim, adib va ulamolar nomi zikr etilgan. Shu boisdan ham biz "Bahoriston"ni zamima tazkira deya olishimiz mumkin. Zamima tazkira nomiga to'xtaladigan bo'lsak, ayni jumla Suyima G'aniyeva tomonidan birinchi marta qo'llanadi. "Farxangi forsiy mu'iyin" lug'atida "zamima" – arabcha so'z bo'lib, biror narsaga ilova qilingan qo'shimcha ma'nosini bildirishi keltirilgan. Birinchi zamima tazkira Nizomiy Aruziy Samarqandiy tomonidan "Chahor maqola" nomi bilan mashhur "Majma' un-navodir" asari 1156-1157-yili yozilgan. Jumladan, Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" asari shunday zamima tazkiralardan hisoblanadi. [Umarova, 2022, 68-69-betlar]. Adibning maqsadi "Bahoriston"ni tazkira asar sifatida yaratish emas edi, ammo yettinchi ravza, ya'ni she'r va shoirlik bobi tazkira talabini bajara olgan.

Abdurahmon Jomiy Navoiy xususida so'z yuritar ekan, uning nafaqat adabiy ijodi, shoirlik mahorati va qobiliyati, balki ijtimoiy darajasi va yuksak insoniyligi borasida ham iliq va samimiy fikrlarni tarannum etgan. Xususan, bob quyidagi fikr bilan boshlanadi: "Bizning zamonamiz bu sohibdavlatvujudi ila musharrafdir. U o'z martabasi, ulug'ligi va shohga yaqinligi va shuningdek Olloh ato etgan o'qish o'rganish bilan orttirilgan ilmu donishi va aqlu zakovati bilan she'rlari husni kamoli uchun har qanday maqtovdan yuqori tursa-da, u o'zini past tutib, she'r ahli jamoasiga qo'shildi va boshqalarga ham pardani oradan ko'tarib, she'riyat yo'lini ochib berdi. Ammo haqqoniyatini aytganda, u mana shu anjumanlarning barchasiga boshliq va she'r ahli sardaftarida nomi bitik"[Jomiy, 2007, 88-bet] Jomiyning ushbu fikrini har

qanaqasiga dalillay olamiz. Alisher Navoiy adabiy faoliyati bilan bir qatorda davlat arbobi maqomida ham tura olgan buyuk siymo edi. Hukumat siyosiy ishlarida uning hissasi ulkan edi. Bolalikdan birga o'sgan maktabdosh do'sti sulton Husayn Boyqaro bilan yelkama yelka davlat boshqaruvida bo'lgan. Keng miqyosda bunyodkorlik harakatlarida bosh bo'lgan. Maktab, madrasa, masjidlar, qolaversa, ko'prik va inshootlar qurilishida bevosita o'zining beminnat ulushini qo'sha olgan, bir so'z bilan aytganda, zamonning noyob jonkuyar yetakchi insoni bo'lib xizmat qilgan. Davlatlararo siyosiy vaziyatlarni to'g'ri baholay olgan kuchli siyosatchi bo'lgani ham bizgacha yetib kelgan tarixiy voqealarda o'z isbotini topadi. Jumladan, Hirotda yuz bergan o'g'ir ahvol...Bir tomondan ichki tushkun vaziyat, ikkinchi tomondan, tashqi dushman (Astrobodda Yodgor Muhammad qo'zg'oloni) endigina taxtga chiqqan Sulton Husayn uchun katta xavf tug'dirgan edi. Lekin Husayn Boyqaro bu yovlarni Alisher Navoiyning bevosita aralashuvi yordamida bartaraf qiladi. Shu asnoda Hirotda g'alayon ko'tariladi. Bunga Hirotda amaldorlarining aholiga juda katta soliq solganliklari sabab bo'ldi. Sulton Husayn nihoyatda darg'azab bo'lib, isyonni kuch bilan bostirmoqchi bo'ladi. Navoiy vazminlik bilan unga bunday qilingan taqdirda, birinchidan, xalqning noroziligi yanada oshib, g'azabi ham kuchayishi mumkinligini, ikkinchidan, chetdan qulay payt poylab yurgan dushmanlarga taxt tomon yo'l ochib berilajagini tushuntiradi. Sultondan bevosita o'zi borib vaziyatni tekshirish va lozim choralar ko'rishga ijozat oladi. Vaziyat so'nggida oyoq-qo'llari bog'langan Yodgorni Husayn Boyqaro oyog'i ostiga keltirib tashlaydilar. Keyinchalik esa u qatl qilinadi. Toju taxt uchun uzluksiz qonli to'qnashuvlar ro'y berib turgani sababli tinchligini yo'qotgan, harbiy yurishlar harajatini qoplash yuzasidan solingan soliqlar tufayli qashshoqlashgan, jonidan bezgan bechora xalq Yodgor Muhammadning mag'lubiyatga uchratilishida, shundan keyin mamlakatda tinchlik o'rnatilishiga o'zining sevimli shoiri jonbozligi va tashabbusini qadrlamasligi mumkin emas edi. Xuddi shunday bo'ldi. Navoiy xalq nazarida adolat va insoniylikning, soflik va yaxshilikning timsoliga aylandi[G'aniyeva, 2015, 10-bet].

Yuqoridagi holat davrning ijtimoiy-siyosiy vaziyatlaridan biri sanaladi. Ammo Navoiyning madaniy muhitdagi roli har qaysi jarayondan-da muhim va ahamiyatlidir. U adabiy kechalarda zamonning ko'zga ko'ringan ijodkorlariga ustozlik qilar edi. Samarali ijod bilan mashg'ul bo'lar edi. Mirxond, Xondamir, Sultonali Mashhadiy, Husayn Udiy, Davlatshoh Samarqandiy va boshqa ko'plab adabiyot va san'at ishtiyoqmandlarga boshchilik qilib, sermahsul ijodiy davralarning tashkil etilishiga ulkan hissa qo'shgan. Bir kuni shunday majlislarning birida Navoiy shoirlarga ustoz Jomiyning bir mashhur g'azaliga nazira bog'lashni – o'xshatma yozishni havola qiladi.

Katta-kichik hamma shoirlar nazira yozib, Navoiyga topshiradilar. Muhokama vaqtida Navoiy naziralarni o'qib, ilarini pishiq va yaxshi chiqmaganini ko'rsatib o'tadi. Faqat ikkigina shoir nazira yozib topshirmay qolgan edi: biri – Osafiy, ikkinchisi – Hiloliy. Navoiy ulardan nima sababdan yozishmaganini so'raydi. Ular nazira bog'lashda nazira bog'lanayotgan g'azaldan yo orttirib, yoxud o'sha aslining saviyasida asar yaratish lozim. Biz Jomiydek so'z ustasining shunday yuksak mahorat bilan yozilgan g'azaliga nazira bog'lashga o'zimizda yetarli iqtidor sezmadik, deb kamtarona, lekin haqiqatga muvofiq keladigan javob berdilar. Navoiy bu javobdan g'oyat quvonadi. Ularning she'rshunoslikda juda quvvatli ekanligini ta'kidlab, eng yaxshi she'r uchun belgilangan mukofotni Osafiy va Hiloliyga bergan edi [G'aniyeva, 2015, 13-bet].

“Bahoriston“ asarida shunday bayt keltirilgan:

Asl nomiga kishi topmas taxallusdin imo,

Kim topolsa lablari uzra inar jonbaxsh navo.

Abdurahmon Jomiy Navoiyning pokiza nomini aynan shu baytdan chiqarish mumkin deya ta'kidlaydi. Ya'ni baytdan kishining asl nomi uning taxallusidan topilmaydi, balki tilidan paydo bo'layotgan hayot bag'ishlovchi so'zidan topiladi, degan mazmuni uqishimiz mumkin.

Hazrat Navoiy xususida so'z ketsa, uning turkiyda ham, forsiyda ham umrboqiy asarlar yaratgani qayd etiladi. Uning forsiydan ko'ra turkiyda ko'proq ijod qilgani ma'lum. Ammo forsiy va turkiy she'rlarining mazmundorlik va ta'sir darajasi birbiridan o'zadi. Turkiy ijodining adadi forsiydan ko'ra ancha ko'pligi Navoiyning o'z tiliga bo'lgan muhabbatning kuchliligidan deb baholasak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, Jomiyning “Bahoriston”ida shunday jumlar keltirilgan: “Tabiati taqozosi va qobiliyatiga ko'ra u turkiy va forsiy she'rlarida yuksalishga muyassar bo'lgan bo'lsa-da, turkiyga ko'proq mayllik ko'rsatti va bu tildagi g'azaliyoti o'n ming baytdan ziyodroq bo'ldi” [Jomiy, 2007, 89-bet].

Hazratning turkiyda ko'p va xo'p ijod qilganini, turkona mahoratiga tan berish va shoirlik maqomining eng ulug' darajasiga qo'yish holatlarini yuqoridagi kabi asarlar bilan birga yana bir qator ilm ahllarining yoziqlarida uchratishimiz va va ularni qiyosiy tarzda o'rganishimiz mumkin. Jumladan, yoshlik chog'idan Navoiyning tarbiyasi va mehridan bahramand bo'lgan, uning soyasida o'sgan G'iyosiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” nomi ostidagi tarixiy asarida Hazratga nisbatan yuksak darajada ta'rif-u tavsif berilgan. Ya'ni, quyidagicha: she'rning o'zi qasida, g'azal, qit'a, ruboiy va masnaviy singari bir necha turga bo'linadi. Shoirlardan bir guruhi kuchli qobiliyatga

ega bo‘lganliklari sababidan ushbu she‘r turlarining barchasida she‘r yozishgan, ulardan boshqa bir guruhi esa ta‘blarining o‘tmasligi sababli bu turlarning ayrimlaridagina she‘r aytishga harakat qilish bilan cheklanganlar. Allohga hamd va shukrlar bo‘lsinki, “Hazrati Sultonning yaqin kishisi” degan daraja va martabaga ega bo‘lgan ul oliy Hazratning ushbu she‘r turlarining barchasidagi mahorati shu darajaga yetgandiki, agar ilgarigi davrlarda yashab o‘tgan shoirlar ul Hazratning muborak zamonlarigacha yetib kelishganida edi, she‘r yozadigan daftarlarini yopib (ya‘ni she‘r yozishni yig‘ishtirib), dunyoning turli tomonlaridan uning fazilat makoni bo‘lgan ostonasi tomon shoshilgan bo‘lardilar.

Masnaviy:

Tasannoki, tab‘ing so‘z ustasidir,

Qalaming kaliti so‘zning muammolarini yechguvchidir.

Bu so‘zning bozori kasod bo‘lgandi,

Xorlik burchagini makon qilgandi.

Bu obro‘ni berding sen yana unga,

Uni tortding she‘r maydoniga.

Fikringdan quvonchu lazzatga to‘ldi,

Navoiyning lutfidan bo‘ldi navoiy.

Ul Hazrat iste‘dodining kuchliligi va qobiliyatining yuksakligi tufayli har ikkala tilda – turkiy va forsiy tillarda she‘r yozish sharafiga muyassar bo‘lgan bo‘lsa-da, biroq uning o‘tkir ta‘bi forsiydan ko‘ra turkiyga ko‘proq mayl ko‘rsatgan edi. [Xondamir, 2015, 39-40-betlar].

Ayni asarda turkiy tilda “Xamsa” asari yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi ahamiyatli fikrlar ham keltirilgan. Navoiy Shayx Nizomiyning “Panj ganj” (“Besh xazina”) dostoniga muqobil tarzda turkiy “Xamsa”ni yozishga muyassar bo‘lgan va u yigirma yetti ming baytdan tashkil topganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. “Hazrati Mahdumiy ushbu asar ta‘rifida shunday deganlar:

Masnaviy:

Turkiy tilning qo‘liga ajib bir yutuq qog‘ozi tushdi,

Bu narsa sehrli nafasga egalarning og‘zini yopib qo‘yadi.

*Osmonni yaratuvchilardan unga qalam keldi.
Ushbu yoqimli asar o'sha qalamdan tug'ildi.
Sovg'a etdi forsiyga gavharlarni,
Dariy nazmida go'zal nazm durini.
Agar u ham dariy tilda bo'lganida edi.
So'z aytishga imkon qolmagan bo'lardi.
Mo'jizali tarzda tuzilgan nazm o'lchovida
Nizomiy kim ediyu Husrav kim edi.
U boshqa tilda so'z aytgani sababli
Aql ularni bir-biridan farqlashga ojiz qoldi.*

[Xondamir, 2015, 43-bet]

Haqiqatan, o'zbek mumtoz adabiyotini Navoiyning "Xamsa"sisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, uning turkiyda yaratilishi buyuk kashfiyotdir. Xamsani yaratish mas'uliyati, so'zni go'zal va o'rinli qo'llash, uning so'zlik qadri va maqomini ushlab turish har kimga ham berilavermaydi. Bu ilohiy nazar. Uning aksi esa Hazratning bitgan har misrasida namoyon bo'laveradi. "Xamsa" tarkibiga kiruvchi "Layli va Majnun" dostonining ikkinchi bobi, ya'ni Munojot qismida quyidagi baytlar keltirilgan:

*Yorab, eshigingda ul gadomen,
Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen.
Boq dardu malolatim-ga, yorab,
Rahm ayla bu holatim'ga, yorab...
Shukringg'a tilimni qoyil ayla,
Sajdangga boshimni moyil ayla...
Bo'l rohnamun mango ul ishga,
Kim bo'lsa sanga rizo ul ishga...*

[“Layli va Majnun”, 1992, 10-12-betlar]

Baytlardan ma'lum bo'lishicha, u Allohga qarata iltijo qilyapti. Eshigingda shunday gadomanki, boshimdan oyoqqacha xatodir. O'zining dardi va hijolatchiligiga boqishini, holatiga rahm qilishini iltijo qiladi. Tilimni shukringga o'rgat va sajdangga boshimni yaqinlatgin, qay ish Sening roziligingga sabab bo'lsa, o'sha ishni qilishimga rahnamo bo'lgin, deya Undan panoh tilab, yolvoradi.

Hazrat Alisher Navoiyning forsiyda ham sermahsul ijod qilgani yuqorida ta'kidlandi. Uning forsiy asarlari turkiydan oz bo'lmagan holda mazmun, yuksak darajadagi ifoda va yuqori ma'no bilan to'yingan. Navoiyning forsiy devoni bo'lmish "Devoni Foniy"da go'zal debocha, 7 qasida, 554 g'azal, 1 musaddas, 1 marsiya, 72 qit'a, 73 ruboiy, 16 ta'rix, 373 muammo va 9 lug'z (chiston) mavjud. Navoiy Hofiz Sheroziyga 237, Jomiyga 52, Xusrav Dehlaviyga 41, Sa'diyga 25, Kotibiyga 5, Shohiyga 5, Kamol Xo'jandiyga 4 va boshqa shoirlarga ham tatabbu' va tavrlar yozgan. Shoirning forsiydagi she'rlari inson, uning kechinmalari, intilishlari, e'tiqodi, yorqin va ta'sirli timsollar noyob badiiy vositalar asosida ta'rif qilindi. (G'aniyeva, 2015, 33-bet) Quyida "Devoni Foniy"dagi bir g'azal bilan tanishsak,

Sen barcha podshohlarning kajkulohisan,

yo'q, yanglishdim, kajkulohlar podshohisan.

Bu qanday husnki, kimning qonini to'ksang,

uzr aytib, yuzing oldida bosh qo'yadi.

Ishqing qonimni da'vo qilsa,

qon sochuvchi ikki ko'zim ikki guvohdir.

Sening bag'baqangni topganimda Isfahon olmasidan

emas jannat olmasidan ham ko'nolimni uzaman.

Hajringda ko'z mardumidan qon oqadi,

bu yuzi qoralar (ko'zlarim) ishqing bilan qizildir.

Gunohsizlar qonini to'kding, mening qonimni

to'kmading, gunohim nima edi, bilmayman.

Foniyga bir qara! Chunki ba'zida podshohlar

gadolar tomonga ham nazar tashlaydilar.

[Devoni Foniy, 2002, 204-bet]

Nasriy bayonini quyidagicha keltirsak bo'ladi: Dastlabki baytda yorga qarata, sen podshohlarning kajkulohi, ya'ni oliftasisan, so'ngra yanglishdim, sen oliftalarning podshohisan deydi. Sen kimning qonini to'ksang, u sendan uzr so'rab, yuzing oldiga bosh qo'yadi deya, husnining oldida lol qoladi. Gar ishqing qonimni da'vo qilsa, mening qon sochuvchi bu ikki ko'zim guvohlik beradi. Qachonki sening baqbaqangni topsam, Isfahon olmasi tugul jannat olmasidan ham ko'nglimni uzaman, deydi. Hajringda ko'z qorachig'imdan qon oqadi, chunki bu yuzi qora ko'zlarim sening ishqing bilan qizildir, Foniya ham bir qara, ba'zan podshohlar gadolarga ham nazar tashlab turadi deya, yorga uning ishq oldidagi chekkan azoblarini bildirib murojaat qilmoqda.

Forsiy she'rlari orasida Amir Xusrav Dehlaviyning "Yaxshilar daryosi" qasidasiga javob tariqasida bitilgan qasidasi bor. Unda ajib mazmun va nozik xayolotga ega baytlar juda ko'p. uning boshlanmasi bunday:

Podshohlar tojida yolqinli la'l bo'lsa bezak,

Boshdagi har xom xayolga tob beruvchi cho'g' demak.

[Jomiy, 2007, 89-bet]

Ushbu baytni tahlil qiladigan bo'lsak, yorqin qizil qimmatbaho tosh podshohlarning tojiga zeb beruvchi bo'lsa, boshga kelgan har bir xom xayolni me'yoriga yetkazuvchi, tob beruvchi cho'g'dir deyilgan. Bu kabi baytlarning tahlilini ko'rib Navoiyning o'xshatish va bu orqali tinglovchini hayratda qoldirish qobiliyatiga takror amin bo'lamiz.

XULOSA

